

**Sherzod Abduxalimov**

# **BADIY ASARLARDAN TESTLAR**

("Oltin zanglamas", "Sarvqomat dilbarim", "Tushda kechgan umrlar", "Asror bobo", "Jayhun ustida bulutlar")



1. – *Shu yerdan ikkita qiz o’tmadimi? Bittasi chamandagul do’ppili.*

– *Payqamadim, – dedi Qodir. U ilon avragan qurbaqadek baqrayib qolgan edi.*

– ***Oldidan o’tgan qizni payqamaydigan qanaqa yigit ekansiz!***

Ushbu parchada ajratib ko’rsatilgan gapda qanday **uslubiy ma’no yuzaga chiqmoqda?**

A) *jahl, g’azab*

B) *kesatiq, piching*

C) *hayrat, so’roq*

D) *quvonch, shodlik*

2. “Oltin zanglamas” romani mazmuniga mos **to’g’ri** shakllantirilgan gapni belgilang.

A) *Qodir institutga qabul qilinishidan xursand bo’ladi, lekin yuragida qandaydir kemptik bor edi.*

B) *Qodirdagi bo’lgan o’zgarishni, eng avvalo, onasining gaplaridan akasi sezib qoladi.*

C) *Sodiq ukasini yolg’izlatmaslik uchungina u o’qishga kirgan shaharga ko’chishga qaror qiladi.*

D) *Qodir bog’da musichalarning uchishini kuzatib turar ekan, yonidan atlas ko’ylakli qiz o’tib ketganini ko’radi.*

3. Asar qahramoni **Qodir** haqidagi **xato bo’limgan** javobni belgilang.

A) *Qodir atlas ko’ylakli qizni uchratganidan keyin berilib dars qila olmadi.*

B) *Qodir qizni uchratdi-yu keyin uni yo’qotib qo’ymaslik uchun uning ortidan ergashdi.*

C) *Qodir odatda har kuni boqqa chiqib dars qilishni yoqtirar edi.*

D) *U qizga aytadigan tayinli gapi yo’qligi uchun qizni izlashdan to’xtaydi.*

4. “Bog’” so’zi Qodirni uyqudan uyg’otgandek bo’ldi, g’alati bo’lib ketdi.

Qodirni shunday ahvolga tushishiga **sabab bo’lgan** qatorni aniqlang.

A) *Avval bog’da uchratgan qizning uni axtarib kelganligi uchun*

B) *Shaharda bog’larida yakshanba kunlari odamlarning gavjum bo’lganligi uchun*

C) *Bog’ga borib dars qilishi kerakligi sababli*

D) *Bog’da bo’lgan voqeani qaytadan esga solgani uchun*

5. *Kelinining ko’ngli buzilganini ko’rgan Adolat xola darrov boshini silardi.*

– *Sabr qiling, jon bolam, Xudo sevgan qulini befarzand qo’ymaydi. Sabr so’ngi- sariq oltin.*

**-Sabr qilmay, nima qilyapman, oyijon!- derdi Jannat va yana battar yonardi, sirti kulib ichi yonardi.**

Ushbu parchada ajratib ko’rsatilgan so’zda qanday **uslubiy ma’no mavjud?**

A) *shodlik, quvonch*

B) *kesatish, norozilik*

C) *iztirob, alam*

D) *so’roq, ilojsizlik*

6. *Ardoqlab oqqa ko’chirayotgan xatingga siyoh to’kilgandek yuraging achishadi.*

Jannat **nima sababdan** shunday holatga tushadi?

A) *Necha yillardan beri ahil-inoq yashab kelayotgan oilada birgina farzandning yo’qligi va shu sababli mehrsizlikning paydo bo’lishi*

B) *Juda muhim tashkilotga xat yozgan paytida, bu holat Jannatni iztirobga soladi*

C) *Farzandi bor tengqurlarining bolalarini qo’g’irchoqdek yasatib olib, oldidan yetaklab o’tganlarida*

D) *Qaynonasining nevarali bo’lish istaklarini eshitganidan so’ng, Sodiq unga dalda bergenlarida*

7. "Oltin zanglamas" romani qahramoni **Adolat xola** haqidagi **to'g'ri bo'lмаган** hukmlarni toping.

1. *Har ikki so'zning birida "jon bolam" deb turar edi, shuning uchun mahalladagi ko'pchilik Adolat xolaning ismiga "jon bolam xola" laqabini qo'shib olishgan edi*

2. *Ko'p farzandlaridan judo bo'lgan Adolat xola ikki o'g'lining ham o'zidan uzoqlashishini xohlamaydi, natijada oilaviy ko'chishga qaror qiladi*

3. *Adolat xola sezgir, shuning uchun ham Qodirning o'zini tutishini ko'rib, katta o'g'lidan o'qishga kirgan-kirmaganligini surishtiradi*

- A) faqat 2      B) 2,3      C) 1,3      D) 1,2

8. Quyidagi fikrlardan qaysi biri "Oltin zanglamas" asari mazuniga **mos emas**?

A) Asarda qiz bolalarni o'qitmasdan, ishlatmasdan turmushga berib yuborgan holatlar mavjud

B) Sodiqning har bir aytgan gapi, xususan "katta doktorlar" haqidagi taklifi Jannatga juda yomon ta'sir qiladi

C) Sodiq xotinini dastavval bog'chadagi bog'cha murabbiyalari kursida o'qitib, mакtabda ishlatdi

D) Jannat Sodiqni bir necha bor ko'chish fikridan qaytarmoqchi bo'ladi, ammo eri bu taklifga rozi bo'lmaydi.

9. Sodiq xotinining ko'chishni istamayotganining asosiy **sababi nimada** deb biladi?

A) Chunki qishloqqa ancha o'rganib qolgan, u tanigan insonlar, qarindoshlar-barchasi o'sha yerda yashashadi.

B) Chunki ishini jon-u dilidan sevadi va undan ayrligisi kelmayotganidan

C) Chunki ular ko'chib borayotgan shahar bu yerdan ancha olisda, u yerga kamida 1 oylar yo'l yurib, keyin yetish mumkin edi.

D) Xotini sog'lom edi, shu sababli ko'chishga, "katta doktorlar"ha ko'rsatishga ham ehtiyoj yo'q edi.

10. Asar qahramoni **Sodiq** tog'risidagi **TO'G'RI** hukmlarni toping.

1. *Sodiq bir qancha maqsadlar bilan boshqa shaharga ko'chmoqchi edi, shuning uchun mакtabdagi ba'zi hamkasblari bilan xayrlashib keladi.*

2. *Farzandsizligini hech kimga bildirmaslikka urinadi, ba'zida Jannat ham uning bu fe'lini to'g'ri tushunganidan hech narsa demaslikni ma'qul ko'radi .*

3. *Ko'chishdan bir haftalar oldin ukasi bilan borib, uy-joy taraddudini ko'radi.*

4. *U bosmachilarga bo'lgan qahr-g'azabini oyisiga ochiq-oydin aytadi.*

- A) 3,4      B) 2,3      C) 1,3      D) faqat 3

11. *Sodiqning ikkita o'rtog'i ularni poyezdga kuzatib qo'ysi, Adolat xola biroz xomush, Jannatning ko'zida yosh miltillardi.*

Ushbu parchaga **mos** mazmun qaysi javobda keltirilgan?

A) Sodiq ukasi bilan qaysidir shaharga borib uy-joy masalasini hal qilmoqchi bo'ladi .

B) Sodiq ukasi va ikkita do'sti bilan poyezd orqali Vladivostokka ketayotgan edi .

C) Sodiq o'zga yurtlardan bu shaharlarga mehmon bo'lib, o'z Vataniga qaytayotgan edi .

D) Sodiq Mirsalim bilan hamkasabalar ziyofatiga yo'l olgan edi.

12. *Keyinchalik o'qituvchi Mirsalim ekanligi ma'lum bo'lgan bu odam ko'rini turgan eshikni "bu, ana" deb qo'ya qolmasdan avval yumshoq kuldii, keyin Sodiqning oldiga tushib boshlab ketdi. Uch eshik o'tgandan so'ng qora dermantin qoplangan qo'sh qanot eshikni sal qiya ochib:*

**-Marhamat! Mudirning o'zlari ham shu yerdalar! -dedi.**

Ushbu gapda ajratib ko'rsatilgan gapda **qanday uslubiy ma'no mavjud?**

- A) taklif, yordam      B) takalluf, xushomad  
C) hurmat, mehr      D) buyruq, undash

13. Sodiq shaharga kelganida Mirsalim **qanday** masalada unga yordam beradi?

- A) Sodiq shahrida tarixiy muzeyi yo'qligini bayon qilganida , bu shaharda istagancha muzey topilishini aytadi.
- B) O'zi ishlayotgan maktabdan unga alohida ish o'rni ham topib beradi
- C) Agar Sodiqning o'g'li bo'lsa, bitta esli-hushli qizni kelinlikka taviya qiladi.
- D) Yashash uchun uy, ya'ni qulay kvartira topishida ko'mak beradi.

14. Asar qahramoni **Mirsalim** haqidagi **to'g'ri** **bo'lмаган** hukmlarni toping

- 1.Uyda boshqacha, ko'chada boshqacha tusga kirib olib, ma'lum bir maqsad yo'lida ikkiyuzlamachilikni o'ziga kasb qilib olgan obraz.
- 2. Oilasi kichkina: xotini-yu bitta 12 yashar yaxshi qizi bor. Hozir bir joydan uni so'rayotganlar ham bor
- 3. Mirsalim tarix muzeylarining ona tili faniga taalluqli joyi bo'lмагани uchun o'quvchilarini u yerga olib bormaslikka ahd qiladi
- 4. O'rtoqlari tomonidan tasodifan tashlab ketilgan kitoblarning egasi

A) 2,3      B) 1,2      C) 2,4      D) faqat 2

15. "Oltin zanglamas" asariga oid **XATO** **BO'LМАGAN** hukmni toping.

- A) Qodir hamma orzulari ro'yobga chiqib xursand bo'lib, o'ziga qarab Azizaning yoniga borish uchun chiqib ketdi-yu ostonadan Jannat umidsizlikka tushib, xafa bo'lib kirib keldi.
- B) Sodiq odatda kamdan kam hollarda ichgani sababli Mirsalimnikida mehmon bo'lgan vaqtida ham ozroq ichishga majbur bo'ladi.
- C) Mirsalim tanishlari ko'p edi: butun shahar uning do'sti yoki qarindosh-urug'i edi.
- D) Mirsalimning qizi tug'ilgan paytdan boshlab unga ayricha mehr qo'yishi kuzatiladi.

16. Mirsalimning xotini **qachondan** boshlab uning xatti-harakatlarini me'yorda saqlab turish huquqiga ega bo'ldi?

- A) Qandaydir bir notanish ayolning xatini ko'rib qolgandan beri
- B) Ketma-ket nobud bo'lgan farzandlarining o'rnini bosadigan bolani topib olgandan beri
- C) Eri Mirsalim bedavo kasallikka duchor bo'lgandan beri
- D) O'z istaklarining samarasi o'laroq qiz farzandli bo'lgandan beri

17. "Oltin zanglamas" romanidagi **Musharraf** obraziga **MOS BO'LМАGAN** javobni belgilang.

- 1. Hayotda ikki marta ham turmushi o'xshamagan, natijada oila qilishdan butunlay ko'nglisovugan obraz.
- 2. Musharrafning yoshini taxminan 20-30 lar oraliq'ida deyishimiz mumkin.
- 3. Kutubxonachilar tayyorlaydigan kursni tamomlab, o'z sohasi bo'yicha ishlayotgan obraz.
- 4. Ancha yillar begona shaharlarda yashab yana o'z shahriga qaytib kelgan obraz.
- 5. Raqsga tushishga qobiliyati bo'lganligi sababli birdaniga Sodiqning diqqatini tortdi.

A)1, 4      B)1, 5      C) 4,5      D) faqat 5

18. "Oltin zanglamas" romaniga oid **TO'G'RI** **BO'LМАGAN** variantni belgilang.

- A) Sodiq xotini bilan farzand asrab olishga kelishadi, biroq Mirsalim ularni bu fikrdan qaytarishga sababchi bo'ladi.
- B) Adolat xola o'g'li bilan kelinining turmushi buzilishida hech biriga ayb qo'ya olmadi, chunki ikkisi ham uning farzandi edi.
- C) Sodiq Musharrafga uylanishi bilan Jannat ishidan bo'shab o'z tug'ilib o'sgan shahriga qaytadi.
- D) Mirsalimning xotini boshqalarining oilasiga aralashavermaslikka da'vat qilganda Mirsalimning jahli chiqib, o'zini oqlash uchun sabablar topdi.

1."Oltin zanglamas" romani haqdagi **to'g'ri** shakllantirilgan javobni aniqlang.

A) Sodiqning otasi Omil qori yuzboshinikida uzzukun mehnat qilib, shu orqali bir o'zi ro'zg'orini tebratar edi.

*B) Uch kishi kelib Sodiqni qamoqxonaga solishgalarida birinchi bo'lib xayolidan Mirsalimning soxta xushomadlari-yu unga shubhali tuyulgan xatti-harakatlarini o'yladi.*

C) Bir tasodif tufayli asar bosh qahramoni o'zi xavfsirab yurgan dushmani bilan uchrashib qoladi, bu esa Sodiqning umuman xayoliga kelmagan edi.  
D) Sodiq mag'lubiyatga uchragandan keyin uning

*o'rnini unga xushomadgo'ylik qilgan do'stlari  
egallaydi.*

2. "Oltin zanglamas" romani mazmuniga quyidagi qaysi jarayon **mos kelmaydi**?

A) Asarda butun yer yuzidagi xalqning yostig'ini quritgan urush haqida gap ketadi.

*B) Ilm-ma'rifat ziyyolilarining ommaviy tarzda "paxta ishi" masalalariga jalb qilinishi haqida so'z boradi.*

*C)Oq podsho sultanatiga nuqta qo'ygan davlat to'ntarishi haqida so'z yuritiladi.*

D) O'zbek xalqining majburiy tarzda mardikorlikka olib ketilishi to'g'risida gap ketadi.

### 3. – *Tushunmadim.*

– Bu yerda tushunmaydigan hech narsa yo'q. Gap birov haqida emas, o'zingiz haqingizda, ya'ni Sodiq Qo'chqorov haqida. Nahot o'zingizning ishlaringizni o'zingiz bilmasangiz. Qiziq!

*Sodiq sovuq suvgaga sho'ng'igandek bo'ldi.*  
Ushbu parchada ajratib ko'rsatilgan gap  
mazmunida qanday **uslubiy ma'no ifodalangan?**

A) *kesatiq, piching*      B) *qahr, g'azab*  
 C) *tajjub, gumonsirash*    D) *hayronlik, ajablanish*

4. Quyidagi qaysi javobda asar qahramoni **Sodiq** haqidagi xato bo'limgan gap qatnashgan?

*A) Qamoqqa tushkanidan keyin kun-u tun onasini o'ylab, hatto mijja qoqmay chiqqan holatlar mavjud.*

*B) Tergovchi Chuxanov Sodiqning jinoyatlarini fosh etishning mavridi emasligini bilib, unga bir necha kun xalaqit bermay yuradi.*

*C) Mirsalim Sodiqning o'rniga direktor bo'lgach uning ishlarini "sal boshqacharoq" usulda davom ettirdi .*

*D) Azizaning Qodir bilan ishqiy munosabatlaridan xabar topgan Mirsalim obro'yining to'kilishini o'ylab, qizining u bilan ko'rishishini taqiqlab qo'yadi.*

5. *Eslaringda bormi, u bolalarga "qaldirg'och Makkayi Mukarramadan kelgan muqaddas qush, uyasini buzib bo'lmaydi, buzmanglar" deganda ham, taloq haqida o'quvchi bolalarga axloqsiz hikoyalar aytib bergenida ham sizlar indamadinglar. Men, yo'q, unday emas, dedim, uning yovuz niyatini fosh qildim.*

*Zaldagi sukunatni keksa o'qituvchi Ikrom  
otaning zaharxandasini buzdi:*

*– Kerakli joyga ham borib aytganmisan?  
Ota gapini tugatmasdan Mirsalim shoshqaloqlab  
ketdi:*

- *Aytganman... yo'q, borib aytishim mumkin.  
Aytaman...*

Ushbu parchada ajratib ko'rsatilgan gapda qanday uslubiy ma'no ifodalangan?

A) *jahl, qahr*

C) *so'roq, taajjub*

B) kesatiq, piching

D)alam, nafrat

6. Asar qahramoni **Mirsalim** obraziga mos bo'lgan javoblarni belgilang.

1. Mirsalimning birdan bir orzusi Sodiqning egallagan lavozimiga erishish edi va nihoyat unga erishishga muvaffaq bo'ladi ham. Endi uning bu hayotda armoni yo'q edi. Shuning uchunortiqcha orzu qilmay qo'ydi.
2. Mirsalim direktorlik pog'onasiga ko'tarilgandan keyin muomalasida ham, fe'l-atvorida ham, kiyinishidan ham katta o'zgarishlar yuz beradi.
3. Mirsalim Aziza bilan Qodirning qilib yurgan ahdupaymonlari obro'yiga putur yetkazishini, shuncha yil deganda endi qo'lga kiritgan lavozimidan ajralishni istamaydi. Shuning uchun qizini ko'chaga quvib soladi.

A) 1,2      B) 2,3      C) faqat 2      D) 1,3

7. "Oltin zanglamas" romani mazmuniga mos **xato** shakllantirilgan javobni belgilang.

- A)Qarashlari bir-biriga zid bo'lgan hamkasblarni uchratishimiz mumkin.
- B)Bir oilani zor qaqshtab, uy-joyigacha o'zlashtirib olgan qahramon mavjud.
- C)Sodiq tergovchi kabinetida Mirsalimni ko'rди-yu alamidan u bilan yoga bo'g'ishib ketdi.
- D)Sodiq qamoqxona muhitida nohaqlikni haq deb biladigan odamlarni ko'rib, hang-u mang bo'lib qolgan edi.

8. "Oltin zanglamas" romani haqidagi **noto'g'ri** hukm(lar)ni toping.

1. Musharrafning haddan tashqari qaysarligi uning o'z o'limiga sabab bo'ladi
2. Dilovarxo'ja Sodiqqa dilini yorar ekan, fikrlashi Sodiqning fikrlashining mutloq teskarisi bo'lib chiqardi, ikkisi mutlaqo ikki dunyo edi
3. Asar qahramonining tuhmatga giriftor etilishi, bir uninggina emas, butun oila a'zosining tinch hayotiga o'nglanmas zarba berdi

A) 1,2    B) 1,3    C) Faqat 1    D) 2,3

9. "Oltin zanglamas" romanidagi **Jannat** obraziga mos **keladigan** javob(lar)ni toping.

1. Jannat juda yoshligidan Sodiqni yaxshi bilar, bir-biriga ko'ngil qo'yib, turmush qurishgan edi.
2. Jannat Adolat xolaning uyiga kelib, hasratlashgan paytida hali ham qishloqdagi bog'chada ishlayotganligini ta'kidlab o'tadi.
3. Jannat xulqida hech qanday nuqsoni bo'lмаган, qaynonaning ham, erining ham, qaynukasining ham hurmatini joyiga qo'yib qo'ygan farishta ayol edi.
4. Jannat Adolat xolaning bola haqidagi ta'riflarini eshitishi bilan Maratga o'z bolasi kabi qaray boshladi, hatto "meni aya deb chaqirgin" deb erkalab ham qo'ydi.

A) 1, 3      B) faqat 3      C) 3,4      D) 1,4

10. "Oltin zanglamas" romaniga oid **to'g'ri** shakllantirilgan mazmun berilgan qatorni toping

- A) Jilovdoriga ishonmagan Dilovarxo'ja meni sotib qo'yadi degan ma'noda uni o'ldirib yuboradi, shundan keyingina ko'ngli tinchiydi va boshqa qishloqqa borib bexavotir yashay boshlaydi.
- B) Sodiq xotinining barcha qilgan xarxasha-yu qiliqlari uchun uni kechirishni maqsad qilib qo'yandi, biroq qamoqxonagacha kelgan Musharrafning aytgan so'zlarini uning orzu-umidlarini chilparchin qilib yuborgandi.
- C) Adolat xolaning so'zlariga qulog solib, hamma g'ala-g'ovur, tuhmatlardan xabar topgan Jannat astoydil kuyindi, ayniqsa Sodiq akasiga judayam rahmi keldi .
- D) Qamoqxona shunday joy ediki, tashqarida qanday jarayon ketyapti umuman bilib bo'lmasdi, xuddi shunday paytda, Sodiq uydagilari berib yuborgan ko'k somsa orqali, zinada bexosdan ko'zi tushgan yam-yashil daraxtlarni ko'riboq, hozir bahor ekanligini anglaydi.

11. Asar qahramoni **Dilovarxo'ja** haqidagi to'g'ri bo'limgan javob(lar)ni belgilang.

1. *O'ladigan qo'y boltadan qo'rmas deganlaridek, erta-indin o'ldirilishini ko'ngli sezgan Dilovarxo'ja rejalarhtirgan barcha kirdikorlarini Sodiqqa to'kib-sochadi.*
2. *Dilovarxo'janing "Tushda kechmas umrlar" romanidagi Soat G'aniyevga xarakter jihatidan o'xshash taraflari bor.*
3. *Asarda Dilovarxo'janing moddiy manfaat yo'lida har qanday shumlik, ustomonlikdan, hatto qotillikdan ham tap tortmasligini ko'rishimiz mumkin .*
4. *Sud uni otishga hukm qilmasdan lagerga yuborishganidan, Dilovarxo'ja boshi osmonga yetgudek xursand bo'ladi, shuning uchun u yerda el qatori ishslashda davom etadi .*

A) 1,4              B) 2,3              C) 3,4              D) 1,3

12. "Oltin zanglamas" romaniga oid bo'lgan **to'g'ri** shakllantirilgan javob(lar)ni belgilang.

1. *Dilovarxo'ja lagerga yuborilgan vaqtida dastavval qamoqxonadagi suhabatdoshini topib oladi, so'ng bu yerning sharoiti bilan to'la-to'kis tanishib oladi.*
2. *Dilovarxo'ja sog'inish nimaligini bilmaydigan, xotin-u bolasi, onasidan kecha olgan bag'ritosh, xudbin shaxs.*
3. *Sodiqning lagerdagi erishgan birdan bir yutug'i yozgan maktublariga olayotgan javob xatlari edi. Shulardan biri Jannatning oilasining ahvolidan xabardor qilishi edi va bu narsa Sodiqda hayotga ishonch va umid uyg'otar edi.*

A) 1,2              B) 2,3              C) 1, 3              D) faqat 2

13. – *Xo'sh? – jonlandi Sodiq.*

– *Shundan bitta mukammalini menga yaxshilab ko'chirib bering. Men uyimga yuboraman. Uyimdagilar tog'angiznikiga chiqarib beradi. Ular tayinlagan joyingizga yo yetkazadi yo yuboradi. Bizning xatni bu yerda ochishmaydi.*

Ushbu parchada ajratib ko'rsatilgan gapda qanday mazmun ifodalangan?

- A) *Hukumat topshirig'iga binoan xizmat vazifalarini o'tayotgan harbiylarga berilgan huquq-majburiyatlar haqida so'z boradi.*
- B) *Mahbuslar yozgan xatning sariq chaqalik qadrga ega emasligi va shu sababdan shu yerning o'zida qoldirilishi haqida fikr yuritilgan.*
- C) *Harbiylar orasidagi belgilangan tartib-qoidalarning shakllanish xususiyatini tushuntirish ifodalangan.*
- D) *Harbiylar qo'lidagi xatning lagerda emas, balki yurtimizga yaqin hududlarda tekshirilishi nazarda tutilgan.*

14. "Oltin zanglamas" romani mazmuniga **MOS BO'L MAGAN** javobni aniqlang.

- A) *Inson hayotini mazmunli o'tkazishi uchun Olloh uyqu, mehnat, dushmani yaratganligi tilga olingan.*
- B) *Jannat ancha yillar boshqa uyda yashashga majbur bo'lgan bo'lsa-da baribir o'zining qadrdon go'shasidan ko'ngil uzib ketolmadi.*
- C) *Lagerdagi tasodifiy uchrashuvdan Sodiq battar g'azablanib ketdi-yu buni Dilovarxo'jadan yashirib o'tirmadi, hech qachon uning yo'l-yo'rig'iga yurmasligini ta'kidlab o'tadi .*
- D) *Lagerda Sodiq ko'plab hunarlarni o'rganishi barobarida do'stlarini g'ayrat-shijoat bilan ishslashga undagan holatlar mavjud .*

1. Chingiz Aytmatovning “Sarviqomat dilbarim” asaridan olingan quyidagi jurnalist va Ilyos o’rtasidagi suhbatda **ajratib ko’rsatilgan gap** orqali nima nazarda tutilgan?

*U to’satdan boshini ko’tardi-da, qiyiq qo’yko’zlarini menga tikib:*

— **Siz o’shanda mendan qattiq xafa bo’lgandirsiz-a, og‘a?** — deb so’radi ma’yus jilmayib.

— **Qachon?** Negadir eslolmayapman, men uning noqulay ahvolga tushib qolishini istamas edim.

A) Ilyos jurnalistning iltimosini bajarolmay, uning yuklarini mashinasiga ortishdan bosh tortganligi;  
B) Ilyos jurnalistni shoshilinch vaziyatda yarim yo’lda qoldirib ketganligi;

C) Ilyos mashinasida joy bo’lsa ham, shoshib turgan jurnalistni olib ketolmaganligi;

D) Ilyos jurnalistning u haqida bergen savollariga javob bermaganligi;

2. “Sarviqomat dilbarim” asari qahramoni **Ilyos** haqida **to’g’ri bo’lmagan** javobni toping.

1) Ota-onasiz bolalar uyida tarbiyalangan, shuning uchun o’z oilasini saqlab qola olmagan qahramon;  
2) Turmush o’rtog’ining uyidagilari majburlab boshqaga uzatmoqchi bo’lganda urf-odatlarini buzib uni olib qochib ketgan qahramon;  
3) Asalni ko’rib yoqtirib qolgandan so’ng, Alibek yordamida unga uylangan qahramon;

A) 1,3              B) faqat 2              C) 1,2              D) 2,3

3. “Sarviqomat dilbarim” qissasi haqida **to’g’ri** ma’lumot berilgan javobni belgilang.

A) Asarda farzandi uchun butun borlig’idan kechgan, hatto, farzandi xoinlik yo’liga o’tsa ham bardosh qilgan ona timsoli gavdalantirilgan.

B) Asarda qat’iyatli, bir o’ylagan ishini qilishga harakat qiladigan, o’zining qandayligini ko’pchilikka isbotlab qo’ymoqchi bo’lgan qahramon gavdalantirilgan.

C) O’g’li to’g’risida kelgan xabarni yashirishga uringan, sababi xotining qiyin ahvolga tushishini xohlamagan obraz gavdalantirilgan.

D) Butun borlig’ini o’z mashinasini deb biladigan, shuning uchun oilasiga ham e’tiborsiz bo’lib qolgan qahramon uchraydi.

4. *Ilyos:*

*Jahlim chiqib ketdi. Nimani tomosha qiladi-ya, sirk bormi bu yerda!..*

— **Qani, tepamda turma, yo’lingga ravona bo’l!**

— deb qichqirdim mashina ostidan. Eskirib, go’ng tegib iflos bo’lib ketgan ko’ylak etagiga ko’zim tushib qoldi. Nazarimda, allaqanday kampirga o’xshadi, ovulga olib borib qo’yar, deb kutib turgan bo’lsa kerak.

Ushbu parchada ajratib ko’rsatilgan gapda qanday uslubiy ma’no ifoda etilgan?

A) quvnonch, shodlik

B) g’azab, jahl

C) qo’rquv, hadik

D) hayratlanish, taajjub

5. “Sarviqomat dilbarim” qissasi haqida berilgan **xato** hukmni aniqlang.

A) Ilyosning asosiy kasbi haydovichilik edi, u bu kasbini yoqtirardi.

B) Ilyos Asalni birinchi bor noqulay vaziyatda, mashinasi botqoqlikka botganda, uchratgan edi.

C) Asal Ilyos bilan qochib ketishdan oldin uning uydagilari boshqaga belgi qilib qo’ygandi.

D) Asal Ilyosni mexanik bo’lgani uchun yoqtirib qolgan edi, chunki bu kasb bu hududda juda obro’li edi.

6. “Sarviqomat dilbarim” qissasida ishtirok etgan Ilyos haqidagi **mos** javoblarni belgilang.

1) Armiyadan qaytganidan so’ng umrida birinchi marta haydovichilik bilan shug’illangan edi.

2) Dovonda mashina ketiga yana bir mashinani bog’lab tortganini hech kim ko’rmagan edi, shu sababli uning gapiga hech kim ishonmaydi.

3) Uning uchun oilasi birinchi darajali edi, ammolari tufayli oilasi yonida qolishga vijdoni qiynalgan obraz;

A) 1,3

B) 1,2

C) faqat 3

D) 2,3

### 7. U bo’lsa:

- Men kampir emasman! — dedi.  
*U bu so’zlarni qandaydir ishonchsizlik bilan  
uyalinqirab aytgan edi.*  
— Kimsan bo’lmasa? — dedim achchig‘im chiqib.  
— Qiz bolaman.  
**— Qiz bolaman? — deb etiklariga yana ko’z  
qirimni tashladim.** Jerkib bergenligim uchun  
xijolat tortib, buyog‘ini hazilga burdim:  
— Chiroylimisan? — deb so’radim.

Ushbu parchada ajratib ko’rsatilgan gapda qanday uslubiy ma’no ifoda etilgan?

- A) so’roq, shodlik                    B) hayratlanish, taajjub  
C) qo’rquv, hadik                    D) g’azab, jahl

### 8. “Sarviqomat dilbarim” qissasi haqida XATO shakllantirilgan mazmun berilgan javobni toping.

- A) Ilyos dastlab kolxzogga yuk olib borishdan xursand emas edi, ammo keyinchalik bir voqeal sabab kolxzogga kelganidan mammun bo’ladi.  
B) Asal o’zi tanimagan yigitning mashinasiga mingani bilan, qishloqqa kirgandan so’ng, odamlardan hayo qilib mashinadan tushishga harakat qiladi.  
C) Ilyos qanchalik o’zini Asalni unutishga urintirsa ham uddasidan chiqa olmaydi, chunki unga bir ko’rishdayoq bog’lanib qolgan edi.  
D) Asal Ilyosni uchratganidan so’ng uyiga kelgan sovchilarga rad javobini beradi va bu qilmishi uchun onasidan qattiq dakki eshitadi.

9. — Men bo’sam kolxzogga bormayman deb yuribman-a, — dedim kulgi aralash. — **Agar yo’lda sizga o’xshagan yordamchi uchrashini bilganimda edi, dispatcher bilan adi-badi aytishib o’tirmagan bo’lardim...** Eh, Ilyos, Ilyos! — deya o’zimni o’zim koyidim.

Ushbu parchada ajratib ko’rsatilgan gapda qanday mazmun ifodalangan bo’lishi mumkin?

A) Ushbu gap mazmuni yo’lda mashina boshqarish uchun qo’shimcha yordamchi zarur edi, dispatcherdan aynan shuni so’raganligi ifodalangan.

B) Ilyosga dispatcher yoqmas edi, shu sababdan nuqul u bilan tortishgani-tortishgan edi, ular o’rtasidagi ushbu munosabatni ochib berish ifodalangan.

C) Ushbu gapda Ilyos kolxzogga borishdan bosh tortganligi, ammo yo’lda Asalni uchratgandan keyin bekor unaqa qilganligi ifodalangan.

D) Ilyos dispecherning xarakterini yaxshi bilar edi, shu sababli u bilan adi-badi qilib o’tirmasligini ifodalagan.

10. Qissada Asalning onasi: — **Asal!** — deb qichqirdi u nimadandir ogohlantirmoqchi bo’lgandek, qo’li bilan og’zini berkitib.

— **Qayoqlarda daydib yuribsan, xudo ko’tarsin seni!** Bor, tezroq kiyimlarining almashadir, — deya Asalni shoshirishidan sabab nima edi?

A) Begona yigit bilan kelganini qo’shnilar ko’rmasligi uchun;

B) Uyiga sovchi kelgan edi, ularning oldida tezroq chiqishi kerakligi uchun;

C) Qo’shni qishloqdan uyiga onasinning qarindoshlari kelgan edi, ularga yemak tayyorlashi kerakligi uchun shoshiradi;

D) Urushga ketgan o’g’lidan xat kelgani va uni Asal o’qib berishi kerakligi uchun;

11. “Sarviqomat dilbarim” asari qahramoni **Jontoy** haqida ko’rsatilgan **to’g’ri** hukmlarni belgilang.

- 1) Bir ayolga uy-joyi tufayli uylanishni va’da qilgan ayyor qahramon;
- 2) Ilyos bilan Asalning mashinadagi holatiga achinib ularga o’z uyidan joy bergen qahramon;
- 3) Ilyos va Xadicha o’rtasidagi barcha xabarni Asalga yetkazgan ayyor, hasadgo’y qahramon;

A) 1,2      B) faqat 2      C) 1,3      D) 2,3

12. Yigit jur’at eta olmay, otlib chiqayotgan suv oqimini yuqorilatib-pastlatib o’ynardi. Uning o’rnida men bo’lganimdam, boshidan oyog’igacha suvga cho’miltirardim, shunda ham u menga hech narsa demagan bo’lardi, kulardi-ko’yardi, xolos. Ilyosning **nima sababdan** Xadichaning bunday munosabatidan ko’ngli to’q edi?

- A) Chunki Ilyos Xadichaning unga bo’lgan boshqacha munosabatlarini bilib yurardi, Xadicha unga befarq emas edi.
- B) Chunki Ilyos va Xadicha anchadan buyon tanish edi, bu yerda birga ishlamasidan ham oldin birgalikda boshqa zavodda ishlagan edi.
- C) Chunki Ilyos Xadicha yashirib yurgan sirni bilar edi, shu sababli unga yomon gapira olmasdi.
- D) Chunki Ilyos va Xadicha bitta kolxozda yoshlikdan qalin do’st bo’lib katta bo’lgan edi.

13. “Sarviqomat dilbarim” asari qahramoni **Xadicha** haqida ko’rsatilgan **to’g’ri** hukm(lar)ni belgilang.

- 1) U o’zini qanday tutishni yaxshi bilar, uncha-muncha odamni o’ziga osonlikcha yaqin yo’latmasdi.
- 2) Ilyosni bir ko’rishdayoq yoqtirib qoladi va u bilan o’z oilasini tashlab gochib ketishga rozi bo’ladi.
- 3) U Ilyosning oilali ekanligini biladi, shu sababli u bilan oldingidek aloqa qilmasdan uzoqlashib ketadi.

A) faqat 1      B) 1,2      C) 1,3      D) 2,3

14. Ilyos:

*G’azabim qaynab, qizishib ketdim.*

— *Yana kolxozgami? Yana go’ng-u g’isht tashishgami? Bormayman! — deb yo’llanmani stolga uloqtirdim. — Bas, shuncha loy kechganim yetar. Boshqalarni ham yuborishsin!*

— *Baqirma! Naryading bir haftalik! Lozim bo’lsa tag’in yuborishadi! — dedi Xadicha menga.*

Ushbu parchada Ilyos dastlab kolxozga borishdan bosh tortadi, ammo keyinchalik **nima sababdan** bu fikridan qaytadi va yana kolxozga borishga qaror qiladi?

A) Chunki Xadichaning iltimosiga qarshi chiqolmagani uchun;

B) Agar Ilyos kolxozga borib ishlasa, yaxshi haq to’lanar edi, oilasi uchun esa pul zarur edi.

C) Chunki kolxoz odamlariga o’zining kerakligini va yordam qo’lini cho’zishi lozimligi tushundi.

D) Chunki hozir kolxozga bormasa, qishloqdagi sevgisini keyin hech qachon ko’rolmasligini, buning oqibatida esa qiynalib yurishini tushundi.

15. Ilyos:

— *Yana kolxozgami? Yana go’ng-u g’isht tashishgami? Bormayman! — deb yo’llanmani stolga uloqtirdim. — Bas, shuncha loy kechganim yetar. Boshqalarni ham yuborishsin!*

— *Baqirma! Naryading bir haftalik! Lozim bo’lsa tag’in yuborishadi! — dedi Xadicha menga.*

Ushbu parchada ajratib ko’rsatilgan gapda qanday uslubiy ma’no ifoda etilgan?

A) so’roq, xafa

B) hayratlanish, taajjub

C) qo’rquv, hadik

D) g’azab, jahl

16. Ertasi yo’lda ketayotib chor tarafga nazar tashlab, ko’zlarim to’rt bo’ldi. Qani u? Qani endi, uning sarvnoz qomati ko’rina qolsa. **Qizil durrachali sarvgomatim!**

Ushbu parchada ajratib ko’rsatilgan qism orqali kim nazarda tutilgan?

A) Xadicha

B) Asal

C) Asalning onasi

D) Ilyosning farzandi

17. “Sarviqomat dilbarim” qissasi haqida **to’g’ri** shakllantirilgan mazmun berilgan javobni toping.

- A) Ilyos ikkinchi bor Asalni uchratishdan umidini uzgan edi, ammo Asalning firmasida ishlaydigan bir qiz ularning yana uchrashishiga sababchi bo’ladi.  
 B) Xadicha Ilyosni yoqtirar edi, shu sababli avtobazadagi ishchilardan ham uyalmay ularning oldida Ilyosga o’z munosabatini ko’rsatar edi.  
 C) Asarda qiz va yigitni bir-biriga ko’rsatmay fotiha qilishga qarshilar mavjud edi, ammo shunday bo’lsa-da, bu urf-odat saqlanib qolgandi.  
 D) Asalning onasi Ilyosni birinchi ko’rgandayoq, unga malomat toshlarini yog’diradi va Ilyos boshqa ularning eshigi oldiga kelmaydigan bo’ladi.

18. “Sarviqomat dilbarim” asari qahramoni **Asal** haqida ko’rsatilgan **xato** hukm(lar)ni belgilang.

- 1) O’z muhabbati deb butun qarindoshlaridan va oilasidan kecha olgan oddiy ovul qizi;  
 2) O’z nafsi yo’lida oilali erkakni yo’ldan og’dirgan qahramon;  
 3) O’zining oilasi, farzandi uchun hamma narsaga tayyor, hatto, xiyonatni bilsa ham, unga e’tibor bermagan qahramon;

A) 1,2      B) faqat 1      C) 1,3      D) 2,3

19. — *E, hali shunaqa de? — deb Jontoy ko’zlarini battarroq olaytirdi. U xursand bo’lishini ham, xafa bo’lishini ham bilmasdi. — E-e, tabriklayman, chin qalbimdan tabriklayman...*

— Rahmat!

*Jontoy razilona tirjayib:*

— *Juda uchar ekansan! Qalinsiz qo’lga tushirgandirsan-a? — dedi.*

Ushbu parchada ajratib ko’rsatilgan gapda qanday uslubiy ma’no ifoda etilgan?

- A) piching, xafa      B) hasad, ko’rolmaslik  
 C) g’azab, jahl      D) quvonch, shodlik

20. Ilyos:

*Asal ikkimiz g’oyatda baxtiyor edik, men do’stlarimning bu iltifotidan qalbdan faxrlanardim. Do’st kulfat-da sinaladi, deydilar. Menimcha, ular baxtli damlarda ham sinaladilar. Ushbu parchada ajratib ko’rsatilgan **bu iltifot** deya nima nazarda tutilgan?*

- A) O’z yoriga erishishida amaliy yordam berib, qizning oilasini rozi qilgan edilar;  
 B) Yo’lda ikki yoshni tabriklab, ularga baxt tilashi va sovg’alar bilan unga iltifot ko’rsatishi, bir do’sti esa o’zi yashab turgan uyini bo’shatib berishi;  
 C) Ilyosning yuklarni tashish uchun bergen taklifini barcha do’stlari qabul qilgani;  
 D) Ilyosning ish joyidan kolxozdan boshqa joyga o’zgartirib bergani;

1. “Sarviqomat dilbarim” qissasi **mazmuniga oid bo’lmagan** javob variantini belgilang.

- A) Asarda II jahon urushi tasviri uchraydi.  
 B) Asarda xalqlar ichida qadimdan shakllangan urf-odatlar haqida gap ketadi.  
 C) Asarda o’z kasbining ustalari hamisha e’tibor markazidan chetda qolishi tasvirlangan.  
 D) Asarda hayoti qiyinchiliklar bilan kechgan qalblar tasviri mavjud.

2. “Sarviqomat dilbarim” qissasida mehmonni ulug’ ko’radigan, “Mehmondan qochmaymiz, xursand bo’lamiz”, - deya uni o’z uyiga taklif etgan qahramon kim edi?

- A) Ilyos                            B) Alibek  
 C) Asal                            D) Boytemir

3. “Sarviqomat dilbarim” qissasi mazmuniga ko’ra **to’g’ri shakllantirilgan** hukmni ko’rsating.

- 1) Ilyos Asal barcha voqeani bilib ketib qolganidan so’ng, uni izlab ovulga borishga yuragi chidamaydi va Xadicha bilan oila qurib ketadi;  
 2) Jontoy Xadichani yoqtirib qolgan edi, shu sababli Ilyosning barcha qilib yurgan ishlarini Asalga aytib beradi;  
 3) Ilyos sinab ko’rgan, ammo amalga oshira olmagan ishni u bilan yoshlikdan o’sgan eng yaqinlaridan biri amalga oshiradi;

- A) 1,2                            B) 1,3                            C) faqat 3                    D) 2,3

#### 4. Ilyos Xadicha suhbati:

- Tezroq olsang-chi! — dedim men.
  - Biron nima bo’ldimi?
  - Asal... uyda yo‘q, ketib qolibdi!
  - **Rostdanmi?** — dedi ranglari oppoq oqarib ketgan Xadicha va o’rnidan turdi-da, lablarini tishlab: — Kechir, kechir meni, Ilyos! Hammasiga men, men... — deya boshladi.
- Ushbu parchada ajratib ko’rsatilgan so’z orqali qanday uslubiy ma’no yuzaga chiqqan?

- A) quvonch, shodlik                            B) hayratlanish, taajjub  
 C) qayg’u, g’am                                    D) hasrat, ilojsizlik

5. “Sarviqomat dilbarim” qissasidagi **Xadicha** obrazi haqidagi **XATO** fikrni aniqlang.

- 1) Hayoti bir tekis davom etayotganda Ilyos uni yo’ldan uradi va oilasi buzilib ketadi.  
 2) Asalga Ilyos bilan bo’lib o’tgan barcha voqealarni aytib beradi, ammo keyin bu uchun afsuslanadi.  
 3) Yengiltak ayol edi, keyinchalik Ilyos bilan oilasi yaxshilanishi mumkin edi, ammo bu sabab ular ajralib ketadi.

- A) 1,3                            B) 1,2                            C) faqat 3                    D) 2,3

6. “Sarviqomat dilbarim” asari haqida **to’g’ri** shakllantirilgan javobni belgilang.

- A) Yozuvchi Jontoy obrazi orqali haqiqiy do’st qanday sifatlarga ega bo’lishi kerakligini ochib beradi.  
 B) Asarda Xadicha obrazi orqali eriga itoatkor, mehnatkash, bolajon ayol obrazi ochib beriladi.  
 C) Asarda ishtirok etgan Alibek obrazi orqali hayoti ziddiyatlarga ko’milgan, odatiy hayot tarzidan zerikkan, ammo mehnatkash inson obrazi ochib beriladi.  
 D) Asarda Boytemir obrazi orqali dastlab shirin hayot gashtini surgan, ammo ma’lum sabablar tufayli oilasidan ajralgan inson tasviri chizilgan.

7. Qaysi javobda “Sarviqomat dilbarim” asaridagi **Boytemir** obraziga tegishli ma’lumot berilgan?

- A) Ilyos va Asal o’rtasidagi munosabatning yomonlashuviga va oilaning buzilishiga sabab bo’ladi.  
 B) Urush davrida o’z oilasini dushmanlardan saqlab qolmaganligi uchun ulardan ajralishiga sabab bo’ladi.  
 C) Tog’ o’pirilishi natijasida oilasi halok bo’ladi, shundan so’ng yo’l ta’mirlovchi kasbini tanlaydi va insonlarga yordam berishga harakat qiladi.  
 D) Urushdan qaytgandan so’ng yo’qotadigan hech narsasi, yashashdan maqsadi ham qolmaydi, ammo bir mushtipar va uning bolasi uni hayotga qaytaradi.

8. — Xo‘p, mayli, bake, kechirasiz, endi men ketay. Hozir biror yo‘lovchi mashina kelib qolar.

Boytemir menga osoyishta va sergak ko‘zlarini qadab, diqqat bilan tikildi-da, miyig‘ida kulib qo‘ydi.

— **Shaharlilik qirg‘izlar urf-odatlarimizni unutib qo‘yyaptilar-da.**

Jurnalist va Boytemir o‘rtasidagi ushbu suhbatda ajratib ko‘rsatilgan gap orqali **nima ifoda etilgan?**

A) Qirg‘iz xalqi o‘z an‘analariga oyoq-osti qilayotganligi ifodalangan.

B) Boytemirning mehmondo‘sligi ochib berilgan.

C) Jurnalist Boytemirni mensimaganligi ifodalangan.

D) Ovul ahlining shaharlarga ko‘chib ketishi qoralangan.

9. So‘nggi marta uchrashuvimizda Asal meni quvonch bilan, shavq-zavq bilan kutib oldi. Yuzlari gulgun ochilib, ko‘zlar tabassumdan porlar edi. U kalta po‘stnim va etigimni yechirmsadanoq to‘g‘ri ichkariga sudradi.

Ushbu parchada **nima sababdan** Asal bunday kayfiyatda edi?

A) Chunki ovuldan ota-onasi ularni ko‘rish uchun kelgandi.

B) Chunki uyiga Ilyosning eng qadrdon do‘sti tashrif qilgandi.

C) Chunki o‘g‘li Samad birinchi qadamlarini bosayotgan edi.

D) Chunki Asalning Ilyos bilan so‘nggi uchrashuvi edi.

10. “Sarviqomat dilbarim” qissasida qaysi holatni Ilyos va Asalning oilasi buzilib ketishiga **sabab sifatida ko‘rsata olmaymiz?**

A) Asalning itoatkorligi, ko‘nuvchanligi;

B) Ilyosning tashvishlar sabab yo‘ldan og‘ishi;

C) Moddiy tomondan yetishmovchilik;

D) Jontoyning xasis va ko‘rolmasligi;

11. — Sekinroq, Ilyos, nafasi qaytib ketadi! — deb Asal quchog‘imdan Samadni tortib oldi. — Xo‘sh, endi nima deysiz? Qani, endi yechining. U tez kunda kattakon bo‘lib qoladi, shunda oyisi ham ishga boradi. Hammasi o‘rniga tushadi, hammasi yaxshi bo‘lib ketadi, shundaymasmi, o‘g‘ilcham?

Qissadan olingan ushbu parcha orqali **qanday mazmun yuzaga chiqqan?**

A) Ilyos Asalning ishlamasligidan xafa edi, shu sababli Asal ishga chiqishga shoshiladi.

B) Ilyosning katta mablag‘ topish tashvishi Asalni ham ishlashga undaydi.

C) Asal o‘g‘lining kichikligi uchun ishga chiqolmayotgan edi, chunki u ishlayotgan firmada yosh onalarning ishlashi mumkin emas edi.

D) Ilyosning qiyin holatini mablag‘dan deb o‘ylagan Asal ishlashga qaror qiladi, ammo o‘g‘li biroz kichikligi uchun bu ish orqaga qolayotgan edi.

12. “Sarviqomat dilbarim” qissasi mazmuni **to‘g‘ri shakllantirilgan** javobni belgilang.

A) Ilyos va Xadichaning ajralib ketishiga sabab ulaning farzandsizligi edi.

B) Ilyos Xadicha bilan ajralgandan so‘ng, Asalning yoniga qaytishga nomus qiladi va uni unitishga harakat qiladi.

C) Ilyos Asalning boshqaga oilali bo‘lib ketganligini Asalning singlisi orqali bilib oladi.

D) Asalning og‘ir holatini ko‘rgan ota-onasi uni Boytemirga nikohlab qo‘yadi.

13. Ilyos va Ermak o‘rtasida bo‘lib o‘tgan quyidagi suhbatga diqqat qiling.

— Bilmadim. Men kelsam, u ketib qolgan ekan. Aytishlaricha, Pomirning allaqaeridagi autobazada bosh mexanik bo‘lib ishlayotgan emish.

«**Qoyilman, Alibek! Qoyilman senga, do‘stim! Puxta yigitsan!**».

Ushbu parchada ajratib ko‘rsatilgan gap orqali **qanday uslubiy ma’no yuzaga chiqqan?**

A) hasad, kibr

B) quvonch, xursandchilik

C) ikkilanish, gumon

D) taajjub, hayrat

14. “Sarviqomat dilbarim” qissasi mazmuniga oid quyidagi qaysi javob to’g’ri emas?

- A) Asarda millat farzandlarinining ta’limga e’tiborsizligi ochib berilgan.
- B) Asarda eski qonun-qoidalarning zamonga moslab o’zgartirilmasligi tanqid qilingan.
- C) Asarda har qanday vaziyatda ham ota-onaning o’z farzandini kechiruvchanligi yuzaga chiqqan.
- D) Asarda har qanday vaziyatga to’g’ri baho beroladigan va shu vaziyatda o’zini vazmin tuta oladigan inson tasviri mavjud.

15. “Sarviqomat dilbarim” qissasi mazmuniga oid to’g’ri shakllantirilgan javobni belgilang.

- A) Boytemir Asalning qiyin vaziyatda qolganidan foydalanib unga erishib olmoqchi bo’ladi.
- B) Ilyos Asalga bor gapni aytib bergani uchun Xadicha bilan ajraladi.
- C) Asal Ilyosning xiyonatini bilsa ham uni kutadi, ammo uning Xadicha bilan oila qurib ketganini Boytemirdan eshitgach, umidi yo’qqa chiqadi.
- D) Ilyos xotini va farzandi boshqa bilan yashayotganini bilgach, bosh olib ketishga qaror qildi, ammo bir kuch, ya’ni o’g’li uni bu fikrdan qaytaradi.

16. — Samad! — deb chaqirdim men toychog’imni. Ko’rgim kelib ketdi. Bolalar menga qarab chopqillab kelishdi.

- Amaki, bizni mashinada o’ynatgani keldingizmi?
- deb oldimga chopib keldi Samad.
- Ha, ozgina sayr qildirmoqchiman sizlarni! — dedim men. Bolalar chuvillashib, hammasi bordaniga kabinaga chiqishdi.
- Bu bizning tanish amakimiz, — deb maqtanardi Samad o’rtoqlariga.

Ushbu parchaga **mos javobni belgilang**.

- A) Ushbu parchada Ilyos bolalarni sayr qildirib kelish orqali Asalga yaqin bo’lishni xohlar edi.
- B) Ushbu parchada u qishloqda hamma bolalarni sevar edi, Ilyos ham bu bolalarni ko’rganda har gal sayr qildirar edi.
- C) Ushbu parchada bolalarni sayr qildirish orqali Ilyos o’g’lining diydoriga to’yib olmoqchi edi, hayotda bitta ma’no faqat shu qolgan edi.
- D) Ilyos o’z mashinasini maqtash uchun har gal shunaqa qilar edi.

17. “Sarviqomat dilbarim” qissasidagi **Gulbara** obraziga **mos bo’lmagan javobni** belgilang.

- 1) Ovuldagi urf-odatlarini buzib, yo’l qurilishida qahramonlik ko’rsatgan qiz edi;
- 2) Urush davrida bolalari bilan yolg’iz qolgan, shunday bo’lsa-da, erining o’rniga yo’l masteri bo’lib ishlagan ayol;
- 3) Ota-onasining rozilgisiz begona yigit bilan qochib ketgan obraz;

A) 1,3                  B) faqat 3                  C) 1,2                  D) 2,3

18. “Sarviqomat dilbarim” qissasiga mazmuniga **mos bo’lImagan javobni** belgilang

- A) Boytemir Asalning boshidan o’tkazgan barcha voqealarni bilganidan so’ng unga beg’araz yordam qo’lini cho’zadi.
- B) Ilyos Asalning boshqa bilan yashayotganligini ko’rib turib ham unga o’zi bilan ketish taklifini beradi.
- C) Boytemir Asalning barcha qarorlarini hurmat qilar edi, agar u Ilyos bilan ketmoqchi bo’lsa to’sqinlik qilmoqchi emas edi.
- D) Boshidan o’tgan barcha tashvishlardan so’ng Ilyos o’zi uchun bir yo’l topolmay hhayotiga nuqta qo’yadi.

19. “Sarviqomat dilbarim” qissasidagi **Boytemir** obraziga **mos bo’lmagan javobni** belgilang.

- 1) Urush qiyinchiliklarini boshidan o’tkazgan qahramon yigit;
- 2) O’z do’sti uchun, hatto, yashab turgan uyini bo’shatib berishgacha borgan obraz;
- 3) O’z qo’shnisiga qiyin vaziyatda yordam qo’lini cho’za olgan oliyjanob obraz;

A) 1,2                  B) 2,3                  C) 1,3                  D) faqat 2

20. *U taajjublanib, menga ma'yusgina boqdida, indamay uyga qaytib kirib:*  
— Siz menga achinyapsizmi? — dedi.  
— Yo'q, uning uchun emas. Bilasizmi... Siz uchun tashvishlanyapman. Qiynalib qolasiz. Qanday qilib kun kechirmoqchisiz?  
— **Ishlayman. Suyagim mehnatda qotgan.**  
— **Qaerda ishlaysiz?**  
— **Biror yerga joylasharman. Ammo uyga qaytmayman, ovulga ham bormayman. Mehnat qilib kun kechiraman.**

Ushbu parchda Asalning kayfiyatida qanday holat kuzatilmogda edi?

- A) alam, g'urur                      B) achinish, ikkilanish  
C) tashvish, ilojsizlik                D) taajjub, hayrat

1. “Tushda kechgan umrlar” romani qahramoni **Qurbanoy xola** haqidagi **to’g’ri bo’lмаган** javobni belgilang.

1) *Keksalik davrida hayoti tashvishdan chiqmasdan, turmushi bo’lmagan yolg’iz qizi bilan hayot kechirayotgan qahramon;*  
 2) *Bobosi va dadasi nohaq qamoqqa olinib surgun qilingan, dadasining gaplarini o’ziga shior qilib, a’lo o’qishga harakat qilgan obraz;*  
 3) *Otasining qamalgani uning hayotiga, o’qishiga ta’sir qildi, ammo u barchasiga chidab ta’lim olishga harakat qilar edi, shuning uchun turli gaplar bo’lsa ham, maktabdan ketmas, o’qishni davom ettirar edi.*

A) 1,2      B) 2,3      C) faqat 3      D) 1,3

2. *Do’xtirlar ham o’lmasin! Xo’p antiqa asboblar o’ylab chiqaribdimi, baraka topgurlar! Chalqancha yotqizib qo’ydi-da, qorniga moy surib, qo’lidagi asbobini u yoqqa yurgizdi, bu yoqqa yurgizdi.*

Ushbu parcha orqali qanday badiiy ma’no yuzaga chiqqan?

A) *do’xtirlar o’z ishining ustasi ekanligi, ammo oxirgi payti ba’zi do’xtirlar faqatgina davolash asboblariga tayanib qolganligi ochib berilgan.*  
 B) *o’lka tibbiyot sohasida ancha orqada qolayotganligi, mamlakatga yangi asbob-uskunalar va mutaxassislar kerakligi ochib berilgan.*  
 C) *shifokorlik sharafli kasb ekanligi, insonni davolash uchun turli vositalardan foydallanishi ochib berilgan.*  
 D) *shifokorlarning savodsiz ekanligi, ularga e’tiborning yo’qligi ochib berilgan.*

3. *Qitir-qitirdan Umida qayta uyg’onib ketdi shekilli, norozi to’ng’illadi:*  
**— Hech tinchimas ekansiz-da!**  
**— Bolalarni vaqtida olib bormasang, bog’cha opasi kirgizmiydi, — dedi Qurbanoy xola o’zini oqlagan ohangda.**  
 Parchada alohida ajratib ko’rsatilgan gapda qanday uslubiy ma’no yuzaga chiqqan?

A) *hayrat, taajjub*      B) *kinoya, norozilik*  
 C) *quvonch, shodlik*      D) *achinish, afsus*

4. “Tushda kechgan umrlar” romani qahramoni **Umida** haqidagi **to’g’ri bo’лган** javobni belgilang.

1) *Farzandsizligi tufayli eridan ajrashgan, onasining uyida yashaydigan obraz;*  
 2) *Onasining uyida uning qo’liga qarab yashaydigan, hech qayerda ish topmay, ishsiz yurgan obraz;*  
 3) *Onasining holidan xabar oladigan, farzandlik burchini bajarishga harakat qiladigan obraz;*

A) 1,2      B) 1,3      C) 2,3      D) faqat 3

5. “Tushda kechgan umrlar” romani mazmuniga mos **to’g’ri shakllantirilgan** javobni belgilang.

A) *Qurbanoy xola asosiy ishidan tashqari qo’shimcha ish qilishga majbur edi, Qo’shimcha ish,sovli supurish, qor kurash, zinalarni yuvish, unga anchagina foyda berardi.*  
 B) *Qurbanoy xola Umidaning “Ishlab nima qilasiz, shu ishingizni tashlang, odamlar nima deydi”- degan gaplariga e’tiborsiz yana o’z ishini davom ettiraveradi.*  
 C) *Qurbanoy xola Komissarning taklifiga ko’nishga majbur bo’lib, kuyovini sudga berishga ahd qiladi.*  
 D) *Qurbanoy xola kasal bo’lsa ham ishlashga majbur edi, chunki eridan chiqqan qizi va nabiralari uchun qo’shimcha pul ham yordam bo’lsin der edi.*

6. “Gapingni bilib gapir, jon bolam, tag‘in seniyam oyog‘ingdan tortib yurmasin!” Dadasi xavotirda. Kecha “nachalnik”ka qo‘ng‘iroq qilmoqchi edi, ayasi bobillab berdi: “Nima qilasiz podadan oldin chang ko‘tarib! Melisa «gunohi bo‘ynida ekanki, tipirchilab qopti”, demaydimi! Nima, Shahnoza erini bo‘g‘ib o‘ldiribdimi?!”

Ushbu parcha orqali qanday mazmun yuzaga chiqmoqda?

A) Bu davrda aholining “nachalnik”lardan qattiq qo‘rishi, ulardan yordam so‘rashning o‘zi ayb ekanligi ochiqlangan.

B) Bu davrda begunoh insonlar ham yanglish gapirib jazoga tortilishi, har xil vaziyatda ham shoshilmasdan qaror chiqarish kerakligi ifodalangan.

C) Qilingan ayblarni yopish uchun turli usullar, vositalar ishgga solinishi mumkinligi ifodalangan.

D) Har qanday vaziyatda ham kishi o‘ziga to‘g’ri bo‘lishi, qilgan jinoyatini tan olishi lozimligi ifodalangan.

7. “Tushda kechgan umrlar” romani qahramoni **Shahnoza** haqidagi **xato** ifodalangan javobni belgilang.

1) Shaharda katta bo‘lgan, qishloq hayot uning uchun notanish bo‘lgan qahramon;

2) O‘zining to‘yi haqida o‘ylarkan, Rustam bilan to‘yi biroz kayfiyatsiz, insonlar urush tashvishlaridan charchagan holda o‘tirganini o‘ylar edi.

3) Rustamning Stepanovichga tashlanishiga e’tibor bermagan, chunki u qilgan qilmishi uchun jazo olishi kerak deb hisoblagan qahramon;

A) 2,3

B) faqat 1

C) 1,2

D) 1,3

8. “Tushda kechgan umrlar” romanida quyidagi voqealardan qaysi biri **qalamga olinmagan**?

A) qatag‘on siyosati

B) Afg‘on urushi

C) Jadidchilik harakatining yoyilishi

D) paxta siyosati, o‘zbek ishi

9. “Tushda kechgan umrlar” romani mazmuniga **mos bo‘lmagan** javobni belgilang.

A) Asarda paxta siyosati shu darajada ochib beriladiki, inson qadri sariq chaqaga arzimasligi yuzaga chiqadi.

B) Asarda paxta davrida, hatto, insonlar baxtsiz hodisalar tufayli hayotdan ko‘z yumishi ham mumkinligi tasvirlangan.

C) Paxta davrida barcha domlalarning naqadar bag‘ritosh va qattiqqo‘lligi tasvirlangan.

D) Asarda Rustamning qat‘iyatligi, qaysarligi ochib berilgan holatlar ham mavjud.

10. “Tushda kechgan umrlar” romanida o‘qituvchining o‘g‘ligi to‘y qilib berishi tasviri berilgan. Ushbu to‘y **nima sababdan** faysiz bo‘lib qoladi?

A) Urush davrida ko‘pchilik kishilar o‘z yaqinlaridan ayrilgan vaqtin to‘yning bo‘lib o‘tgani uchun;

B) O‘zbeklarning urf-odatlarini mensimay, to‘yning o‘rtasida o‘zining qilmishlari bilan aralashgan bir rus kishisi sababli;

C) To‘y vaqtida hukumat askarlarining bostirib kirib, ko‘pchilikni hibsga olganligi sababli;

D) To‘y davomida afg‘on urushi boshlangani xababri yetib kelganligi sababli;

11. Rustam:

— Kechirim so’ra!

— Kechirasan... — Barzangi xirillab, yuzini o’girdi.  
Shahnozaning qulog‘i ostida guddirakdek  
qo’rinchli ovoz yangradi.

— Nega millatchilik qilasan, o‘v?!

Yo‘q, bu ovoz baland emas, asabiy emas edi. Juda  
osoyishta, ishonchli va shuning uchun ham xatarli  
edi. Kim o‘zi bu odam?

Ushbu parcha mazmuniga **mos keladigan**  
variantni belgilang.

A) Ushbu parchada millati har xil bo’lgan ikki  
insonning lavozim talashib tortishuvi tasvirlangan.

B) Ushbu parchada insonlar kechirimli bo’lishi  
tasvirlangan.

C) Ushbu parchada insonlarning nohaqlikka  
chidolmasligi, insonlar o’tasidagi munosabatda  
tenglik bo’lishi kerakligi ochiqlangan.

D) Ushbu parchada insonlar millat ayirib, bir-biri  
bilan ziddiyatlarga borishi tasvirlangan.

12. “Tushda kechgan umrlar” romani qahramoni  
**Soat G’aniyev** haqidagi **to’g’ri** javoblarni  
aniqlang.

1) Buyruqga qattiq bo’ysunadigan, rahbarlarning  
gapini so’zsiz bajarishga harakat qiladigan, zulm  
saltanatining timsoli, tuzum quli;

2) Yoshligida otasi uni to’g’ri yo’lga boshlashga  
qanchalik harakat qilmasin, baribir o’z yo’lidan  
borib, natija ko’plab insonlarning nohaq  
jazolanishiga sabab bo’lgan qahramon;

3) Butun umri davomida totalitar rejim  
siyosatining qalqoni va qilichi bo’lgan, minglab  
aybsiz insonlarning yostig’ini quritgan, o’zi olib  
borgan ishlarini haq deb bilgan fojiaviy obraz;

A) 1,2

B) faqat 2

C) 1,3

D) 2,3

13. “Tushda kechgan umrlar” romani mazmuniga  
**mos bo’lmagan** javobni belgilang.

A) zamonaviy tergov usulidan oldingi tergov usuli  
yaxshiroq ekanligi aytib o’tilgan.

B) Komissar hozirgi surishtiruv ishlari anche  
rivojlanganini, oldingi davrlarda ba’zi masalalarda  
tushunmovchiliklar bo’lganini eslab o’tadi.

C) Komissar hozirgi organ xodimlariga mensimaslik  
kayfiyatida suhbat qilishi kuzatiladi.

D) Tarixda nom qoldirishi xohlab, o’ldirilgan odam  
tasviri keltirilgan.

14. “Tushda kechgan umrlar” romani haqida  
berilgan **TO’G’RI** ma’lumotni aniqlang.

A) Tergov jarayonida Shahnoza Rustamning  
o’limiga bevosita aloqasi borligini tan oladi.

B) Komissar yosh tergovchining no’noqligini ko’rar  
ekan, xonlik davridagi tergov usullarining naqadar  
muwaffaqiyatli ekanligini o’ylaydi.

C) Rustam talabalik davrida paxta terimida qattiq  
shamollab qoladi va Shahnoza qat’iyatlik bilan  
shifokorni olib keladi.

D) Soat G’aniyevning onasi boshiga musibat  
tushgach, birdaniga namozxon bo’lib qoladi va har  
duosida eshondan uzr so’raydi.

15. “Tushda kechgan umrlar” asari qahramoni  
**Rustam** haqidagi **to’g’ri** shakllantirilgan javobni  
belgilang.

1) O’z Vatani va xalqi uchun qon kechib, urush  
dahshatlarini boshidan kechirgan obraz;

2) O’z yaqinlarini xavotirga solmaslik uchun urush  
bo’layotgan joyini boshqa joy deb o’zgartirib xabar  
yo’llaydigan qahramon;

3) Urushga borayotganini eshitgan otasi uni  
Afg’onistondan olib qolishga harakat qiladi, ammo  
o’zi qaysarlik qilib birinchi safda urushga jo’naydi.

A) 1,2

B) faqat 2

C) 1,3

D) 2,3

16. “Tushda kechgan umrlar” asarida Rustamning o’limi sababli tergovga chaqirilganlar orasida **qaysi** qahramon *Rustam o’ldirilgan kun uyida bo’lmaganini, militsiya oldida ekanligini, uning o’limida aybsiz ekanligi ta’kidlaydi?*

A) Komissar G’aniyev  
C) Shahnoza

B) Qurbanoy  
D) Grigoriy Stepanovich

17. Soat G’aniyevning zulmkor holiga tushib **qolishining bosh sababi qaysi javobda to’g’ri ko’rsatilgan?**

A) otasi va onasining yoshligida ko’p janjal qilishi bolaning ruhiy holatiga ham ta’sir etmay qolmaydi.  
B) otasining aytgan gaplari va qilganlari bolaga o’rnak bo’ladi va keyinchalik otasiga taqlid qilib shu holga tushib qoladi.  
C) Afg’on urushi ta’sirida oilaviy qiyinchilklar sababli shu holatga tushib qoladi.  
D) O’rtoqlari nuqul uni kamsitgani uchun ulardan qasd olishga ahd qiladi va shuning uchun bir xotinning o’limiga sababchi bo’ladi.

18. — *Gorispolkomning to’y qilinmasin, degan qarori yo’q. Nega odamlarning boshidan suv sepasiz?*

— Xo’p, ana, hazillashdim, deb hisoblay qoling. Nega meni tergov qilasiz-da, uyimga bostirib kirgan bezoriga indamaysiz? Tepib, oyog’imni sindiray dedi. Oz bo’lsa, bo’g’ib o’ldirib qo’yardi. Bu haqda militsiyaga xabar bergenman. Surishtirib ko’rishingiz mumkin.

Ushbu parchaga **mos mazmun shakllantirilgan** javobni belgilang.

A) Ushbu parchada insonlar o’z huquqini himoya qilishi tasvirlangan.  
B) Ushbu parchada yurtda bezorilarning ko’payib ketayotgani, organ xodimlari parvosiz ekanligi tasvirlangan.  
C) Ushbu parchada militsiya tizimida katta kamchiliklar borligi ochib berilgan.  
D) Ushbu parchada zo’ravonlik avjiga chiqqani, militsiya esa unga qarshi kurashayotgani tasvirlangan.

19. “Tushda kechgan umrlar” asari qahramoni **Vasilyev Grigoriy Stepanovich** obrazi haqidagi **xato** hukmni aniqlang.

1) Rustam bilan adovati sababli to’yni buzishga harakat qiladi va maqsadi amalga oshadi.  
2) Yerlik xalq urf-odatlarini mensimay, qo’pol harakatlar qilgan, shunga yarasha yaxshigina tazirini yegan qahramon;  
3) Onasining qistovi bilan shaharga kelgan, o’qishga kirib tahsil ko’rgan, o’zidan 8 yosh katta xotiga uylangan obraz;

A) 1,2                  B) 2,3                  C) faqat 2                  D) 1,3

20. *Soqol-mo’ylovi tikanak bo’lib ketgan tag’in bir mujik murosaomuz nasihat qildi:*

— Yaxshiyamas, Marya Sergeyevna, yaxshiyamas! Yosh avlodni xususiy mulkchilik ruhida tarbiyalayapsan.

*Onasi, rangi quv o’chib, tag’in to’xtadi. Yetovda kelayotgan sigir tumshug’i bilan uning yelkasiga urilgudek bo’lib pishqirdi.*

— **Sen ham odam bo’lding-u!** — dedi onasi alam bilan. Yana nimadir demoqchi bo’ldi-yu, shashtidan qaytdi.

*Ushbu parchada ajratib ko’rsatilgan gapda qanday uslubiy ma’no yuzaga chiqqan?*

A) nafrat, g’azab                  B) alam, so’roq  
C) ikkilanish, hayrat                  D) quvonch, shodlik

21. “Tushda kechgan umrlar” asari qahramoni Grigoriy Stepanovich **qanday** O’zbekistonga kelib qoladi?

A) O’z yurtidaadolatsizlikka chiday olmaydi va urush bahonasida kelib qoladi.  
B) Hayoti izdan chiqadi, aka ish bilan yurtidan ketayotganda unga iltimos qiladi va shu taqlid kelib qoladi.  
C) O’zbekistonda narx-navoning o’z yurtiga nisbatan ancha past ekanligini, yashash qulay ekanligini eshitadi va akasiga qo’shilib keladi.  
D) Vatini oldidagi burchini bajarish uchun ko’chib keladi.

22. *Ukasini ko’rib daf’atan tanimadimi yo tanimaganga oddimi, qayta so’radi:*  
— Nima gap?  
— Hech gap yo’q, — dedi Grisha sun’iy iljayib. — Men uydan ketdim...  
*Dima sigaretini chuqur-chuqur so’rib, kuldonga uloqtirdi.*  
— **Tabriklayman!**  
— Yasholmayman! — dedi Grisha yig’lamsirab. — Turolmayman o’sha uyda! Jonimga tegdi xotinim ham, qaynonam ham. Mana bunday jonimga tegdi.

Ushbu parchda ajratib ko’rsatilgan gapda **qanday uslubiy ma’no ifodalangan?**

- A) shodlik, quvонч      B) kinoya, kesatiq  
C) hurmatsizlik, nafrat    D) alam, achinish

23. “Tushda kechgan umrlar” romani qahramoni **Soat G’aniyev** haqidagi **noto’g’ri** javoblarni aniqlang.

- 1) *O’z qishloqdoshi Husanni yoshligidagi qasdi sababli har safargi qotilliklari kabi otib o’ldiradi.*
- 2) *Uning urush payti asosiy ishi Vatan xoin va qo’rqaqlarini aniqlash, urushdan qochganlarni jazoga tortish edi.*
- 3) *Eshonning qizi Fotimaga oshiqligi sababli To’laganni yo’ldan olmoqchi bo’ladi va maqsadiga erishadi.*

- A) 1,3      B) faqat 2      C) 1,2      D) 2,3

24. “Tushda kechgan umrlar” romani mazmuniga mos **to’g’ri shakllantirilgan** javobni belgilang.

- A) Rustamning urushda uchratgan do’staridan Temur obrazi ekipaj orasidagi eng xudojo’yi deya ta’riflangan. Temur yuvoshligi sababli eng “qora kasb” – o’qlovchi bo’lgan.  
B) Urushda Rustam Hayriddin meni deb o’ldi deya ko’ngli siqilar, ammo bu sirni hech kimga aytmas edi.  
C) Komissarning ikki o’g’li ham otasining qilmishlariga chiday olmay oilasini olib boshqa joyga ko’chib ketadi.  
D) Komissarning ko’z ochib ko’rgan xotini Nazira uning teskarisi edi. Komissarning har aytgan so’zini so’zsiz bajaradigan, eriga itoatkor ayol obrazi edi.

1. — *Familiyangiz? — dedi Jingalaksoch men tomonga qaramay.*  
Aytdim.

— *Odamlargan nima bo’lgan o’zi, Soat G’aniyevich! — Jingalaksoch qo’lidagi “delo”ni Yovuz Ruh oldiga tashladi. — Shuncha egoizmni kimdan o’rgangan bu yoshlar!* — dedi.

Ushbu parchada ajratib ko’rsatilgan gap mazmunida **qanday uslubiy ma’no** yuzaga chiqqan?

- A) qahr, g’azab                    B) afsus, nadomat  
C) taajjub, hayratlanish        D) shodlik, mehr

2. — *Bordim. Respublika prokuraturasiga.*

— *KPZga tiqmadimi?*

— *Yana bir marta kelsang, jinnixonaga jo ‘nataman, dedi.*

— *To’g’ri aytibdi! — Mauzer Soatovich iljayib qo’ydi. — Jo’natadiyam! Ularga cheklanmagan huquq berilgan.*

— *Dadamning ordenini topshirdim.*

*Ambarsumyanga berib qo’ysin.*

Ushbu parchada ajratib ko’rsatilgan gap orqali qanday mazmun yuzaga chiqqan?

A) *Mahalliy xalqning huquqlarini himoya qilish maqsadida yuqori mansab egalariga berilgan imtiyozlar haqida gap bormoqda.*

B) *Mustamlaka xalq ustidan hech qanday cheklovlar siz hukm yuritayotgan hukumat holati ochib berilgan.*

C) *Yerli xalq o’z huquqlaridan cheklanmagan darajada foydalana olishi ko’zda tutilgan.*

D) *Ko’chib kelgan insonlarning huquqlari hamisha birinchi o’rinda turishi ochib berilgan.*

3. “Tushda kechgan umrlar” asari **mazmuniga mos bo’lmagan** javobni belgilang.

1) *Mustamlakachi davlat bosib olgan hududida haqiqiyadolatni qaror toptirish uchun turli yo’llarni qol’laydi.*

2) *Asarda insonlar o’z hayotni bir tush kabi ta’riflaydi: “yomon” tushlar, “yaxshi” tushlar.*

3) *Asarda pora eng yomon narsa ekanligi, poraxo’r yurt amaldorlarini og’ir kunlar kutayotganligi Rustamning otasi timsolida ochib berilgan.*

- A) 1,2                            B) faqat 2                    C) 1,3                            D) 2,3

4. “Tushda kechgan umrlar” asari qahramoni **Mauzer G’aniyev** haqida berilgan **to’g’ri** ma’lumot(lar)ni belgilang.

1) *Yoshligidan otasi tarbiyasini olgan, otasining izidan borib butun xalq, yurt uchun qayg’uradigan inson bo’lgan qahramon;*

2) *Otasining qilgan nohaq ishlarini eshitib chiday olmagan, yoshligida otasi istagan kasbni tanlamay o’zi xohlagan kasbni egallab, jabr ko’rgan xalq manfaatlarini o’ylaydigan qahramon;*

3) *Yoshligidan ilm olishga harakat qilgan, ammo keyinchalik otasi nazdida o’z yurtini sotgan xoin sifatida ta’riflangan qahramon.*

- A) faqat 2                    B) 1,2                            C) 2,3                            D) 1,3

5. “Tushda kechgan umrlar” asari **mazmuniga mos bo’lgan** javobni belgilang.

A) *Rustam otasining nohaq qamalganini akasidan eshitib o’zini yo’qotib qo’yadi va urushdan qaytishga qaror qiladi.*

B) *Rustam urushdan qaytgandan so’ng o’z yurtida tinchlik hukm surayotganini ko’rib bahri dili ochiladi, ammo o’qishini davom ettirishga kelganda endi o’qish u uchun emasligi tushunib yetadi.*

C) *Shahnoza Rustam urushidan qaytishini kutishga qaror qiladi, ota-onasi majburlab uzatmoqchi bo’lganda sevgani borligini aytib sovchilarga rad javobini beradi.*

D) *Rustam Shahnoza bilan oila qurgandan so’ng, uy olishga o’zi harakat qiladi, ammo harakati befoyda bo’lgach Shahnozaning otasi uy olishiga yordam qo’lini cho’zadi.*

6. — *Uy kerakmi senga?*

*Xudo haqqi! Sharti ketib, parti qolgan keksa odamning ovozi shu qadar gumburlashini birinchi ko’rishim. Xuddi go’rdan chiqqan sadodek!*

— *Uy kerak bo’lib goldimi?* — dedi Yovuz Ruh tag’in tahdidli gumburlab.

Ushbu parchada ajratib ko’rsatilgan gap mazmunida **qanday uslubiy ma’no** yuzaga chiqqan?

- A) qahr, g’azab                    B) afsus, nadomat  
C) taajjub, hayratlanish        D) kinoya, mensimaslik

7. “Tushda kechgan umrlar” asari **mazmuniga mos bo’lmagan javobni** belgilang.

A) Soat G’aniyev umri davomida faqat yomonliklar qildi, umri yakunida esa na bolalaridan, na oilasidan ro’shnolik ko’rdi.

B) Nazira o’lgandan so’ng Komissar o’ziga kelolmadi, boshqa oila qurishni xayoliga ham keltirmasdi.

C) Komissarning kichik o’g’li xotining farzandsizligi uchun o’z oilasi bilan ajralishga majbur bo’ladi.

D) Komissarning katta o’g’li garchi otasi bilan orasi buzilgan bo’lsa-da, farzandlik burchini bilar, otasining holidan xabar olishga harakat qilar edi.

8. — San, o‘g’lim, xapa bo‘ma! — dedi Klava xola sof toshkentcha shevada. — Ichvoganidan keyin ko’ngliga kegan qilg‘iliqni qilgan-de, anu cho‘chqa! Esi bo‘sa, mundoq pastga tushmiydimi, o’tirmiydimi, odamga o‘xshab... **Kechagi voqeа yodimga tushdi.**

Ushbu parchada ajratib ko’rsatilgan gapdagi **kechagi voqeа** qaysi voqeа edi?

A) Rustamning otasidan xat kelgani

B) To’ydagi Stipanovich bilan bo’lgan voqeа

C) Afg’on urushi voqeasi

D) Rustamning Shahnoza bilan bahslashuvi

9. “Tushda kechgan umrlar” asarida Komissar G’aniyev Rustamning o’limining asl sababchisi kim ekanligi aytadi?

A) Rustamning o’zi

C) Shahnoza

B) Olloberganov Sanjar

D) Qurbanoy

10. Sanjar va tergovchi suhbatida:

— *Har qalay “shunaqa bo‘lishini bilardim”, degan Sanjarning gapi keltiriladi. Asar mazmuniga ko’ra, Rustam va Sanjar orasida nima sababdan janjal ko’tariladi?*

A) Rustam Sanjarning Shahnozaga oshiqligini bilib qolgandan keyin

B) Uy masalasida Sanjar va Rustam orasida kelishmovchilik bo’lgandan keyin

C) Rustam Sanjarning Shahnozaga beg’araz yordamini noto’g’ri tushunganidan keyin

D) Rustam Sanjarning Dilfuzaga uylanyotganini eshitgandan keyin

11. “Tushda kechgan umrlar” asari **mazmuniga mos bo’lmagan javobni** belgilang.

A) Asarda tuzumni oqlamaydigan xalqnining qadr-qimmatini yoqlab chiqadigan qahramon uchraydi.

B) Rustamning fojiali o’limiga sabab Shahnoza bilan munosabatlarining buzilishi va u tomonidan aytilgan so’zlar edi.

C) Asarda Shahnoza obrazi orqali sof muhabbat tasviri chizilgan o’rinlarni ko’rishimiz mumkin.

D) Asar mazmuni orqali ba’zi insonlar tuzumga qaram ekanligi, butun hayoti davomida, hattoki, keksa vaqtida ham shu tuzum bilan hayot kechirishini ko’rishimiz mumkin.

1. Abdulla Qahhorning “Asror bobo” hikoyasi bosh qahramoni **Asror bobo** haqidagi **to'g'ri** fikrni toping.

1) *Ilm-savodi bo'lgan, ammo jangga borishdan yuz o'girib qishloqma-qishloq sarson bo'lishga majbur bo'lgan qahramon;*  
2) *O'z qadr-qimmati uchun, hatto, oq poshshoga qarshi xalqni ko'tarilishga undagan obraz;*  
3) *Do'slikni hurmat qiladigan obraz edi, do'sti o'zining qishlog'iga ko'chib ketsa ham undan xabar olar edi.*

- A) 1,3      B) faqat 2      C) 1,2      D) 2,3

2. “Asror bobo” hikoyasiga ko'ra **to'g'ri** fikrni toping.

A) *Hikoyada urush yillari bo'lsa ham, otabobolarimizning ta'limga bee'tibor bo'limganliklari aks etgan.*  
B) *Asror boboning barcha farzandlari urush qahramoni bo'lib qaytishadi.*  
C) *Hikoyaning bosh qahramoni va kampiri bir-birlariga o'chakishgandek munosabatda bo'lishsada, ammo o'zaro g'amxo'r insonlar edi.*  
D) *Chol choyxonani tirikchiligi o'tmay qolganidan ochgan edi.*

3. “Asror bobo” hikoyasi qahramoni **Usta Mo'min** haqidagi **xato** javobni toping.

A) *Qiyinchilik yillar bo'lishiga qaramay, uyiga yordam so'rab kelgan kishiga yordam qo'lini cho'zadi va o'z uyidan unga joy beradi.*  
B) *Bu odam o'zi o'ttiz beshlarga borib qolgan bo'lsa ham, bola-chaqa qilomagan oddiy kasbi bilan kunini o'tkazib yurgan qahramon edi.*  
C) *Ilmli edi, shu boisdan asar qahramonining o'g'liga maxsus ismni qo'yadi.*  
D) *Yolg'izqo'l bir kosib edi, keyinchalik asar so'ngida bu qahramonning vafot etganligini ko'ramiz.*

4. Ultarma xalqi xuruj qilib mingboshining uyiga bostirib borishiga sabab bo'lgan hodisalarni toping.

1) *Poshsho hukumati yerlik xalqni mardikorlikka safarbar etishi;*  
2) *Soliqlarning haddan ziyyod oshirilishi va hukumat vakillarining boshboshoqligi;*  
3) *Asar bosh qahramonining “kerak bo'lsa xizmatkorlarni o'z yurtidan olsin, biz bormaymiz” – degan xitobi;*

- A) 1,3      B) 1,2      C) faqat 2      D) 2,3

5. “Asror bobo” hikoyasiga ko'ra **to'g'ri** fikrni toping.

A) *Haydar bobo do'stiga tegirmonni qishloq amaldoridan qaytarib olishda yordam beradi.*  
B) *Asror bobo yuragi sherdai, ammo xotiniga nimadir bo'lishini o'ylaganda quyonyurakka aylanadi.*  
C) *Hikoyadagi mahalla oqsoqoli tegirmon sabab Asror boboga xusumat saqlab yurardi.*  
D) *Abdumajid Asror boboning Yodgorini o'qdan qutqarib qolomaganidan iztirobda edi, shu boisdan cholning chaqirig'ini paysalga solib yuradi.*

6. “Asror bobo” hikoyasiga oid **to'g'ri bo'limgan** javobni belgilang.

A) *Asrorqulning tegirmon haqida gapirib xafa bo'lavergandan keyin Haydar ota uning tegirmonidan xabar oladi.*  
B) *Asrorqul yurt tinchiganidan so'ng, bola-chaqasi bilan o'z qishlog'i, Ultarmaga qaytib ketadi.*  
C) *Haydar ota boshchiligidida Asrorqul beva xotin bilan oila quradi.*  
D) *Ultarma amini Asrorqulning tegirmonini olib qo'ygandan so'ng, Asrorqul bosh ko'taradi va qishlog'idan chiqib ketadi.*

7. “Asror bobo” hikoyasida Usta Mo’min Asrorqulning o’g’liga Yodgor deb ism qo’yadi va “O’z yurtingda qochoq bo’lib yurgan kunlaringdan yodgor bo’lsin”, - deydi. Ushbu jumlalarni keltirishdan qanday badiiy maqsad ko’zlangan edi?

- A) Asrorqulning butun umr o’z tug’ilib o’sgan joyini eslab yurishi sifatida ushbu jumlalar keltiriladi.  
B) Asrorqul o’z yurtida o’z tug’ilib o’sgan joyiga borolmay, balki boshqa yerlarda musofir bo’lib yurganligini xotirlab yurishi sifatida ushbu jumlalar keltiriladi.  
C) Asrorqul urushga ketish oldidan o’z yerlarini xotirlab yursin degan maqsadda o’g’liga shu ism qo’yiladi va ushbu jumlalar keltiriladi.  
D) Ushbu o’g’il Asrorqulning xotinidan qolgan yagona yodgori bo’lganligi uchun shu ismni qo’yadi va yuqoridagi jumlalarni keltiradi.

8. “Asror bobo” hikoyasiga ko’ra **noto’g’ri** fikrni toping.

- A) Cholning kampiri Haydar otaga yozgan maktubi biroz mujmal, lekin bir kelib do’stini yo’qlab ketishi unda aniq yozilgan edi.  
B) Asror bobo hokim kotibining (demakki hokimning ham) nazariga tushgan odam edi.  
C) Haydar ota doim Asrorqul ota va uning oilasiga madad qo’lini cho’zib kelgan.  
D) Cholning qovurg’a sindirish orqali xotinni jazolash usuli endi o’tmasligini aytishi qonun ayollarga ham qulqoq sola boshlagani, ularning arz va shikoyatlarini davlat ko’ra boshlaganiga ishora edi.

9. “Asror bobo” hikoyasida turli urushlar bo’lib, “oq aminlar” aminligidan tushgandan keyin ham Asrorqul Ultarmaga bora olmay yurdi. **Bunga sabab nima edi?**

- A) O’g’lining xiyonatkorligi sababli xalq oldida yuzi qora edi, shu sababli yurtiga qayta olmaydi.  
B) Oilasi va do’sti Haydar otani tashlab keta olmaydi.  
C) U uchun aziz bo’lgan tegimonini buzib tashlashgan edi, shu sababli endi Ultarmaga borishga hajat qolmagan edi.  
D) Aminlar aminligidan tushgandan keyin qishlog’ini bosmachilar egallab olgan edi, shu sababli qaytib borolmaydi.

10. Haydar ota undan Yodgorboyni so’rab”  
– Xat kelib turibdimi? – degan edi, kampir, o’zi to’lib turgan ekan, ko’z yoshi qildi.  
– **O’rtog’ingiz boshimga bitgan bir balo bo’ldi.**

Ushbu Haydar ota va kampir o’rtasidagi ushbu suhbatda ostiga **ajratib ko’rsatilgan** gap orqali nima ifodalangan?

- A) Asrorqulning uy ishlarini tashlab samovarda kun ko’rayotgani va o’sha yerda ichkilikka mukkasidan ketgani ifodalangan.  
B) Butun qishloqdan uzilib ketib, hatto, qadrdon do’st-u birodarlarini ham e’tiborsiz qoldirgani ifodalangan.  
C) Yodgordan kelgan xatlarni bermayotganini va eri samovarchilik qilib o’g’lini uyatga qo’yanligini ifodalangan.  
D) Kampirning eri tegirmonda odamlarning haqiga xiyonat qilayotgani ifodalangan.

11. “Asror bobo” hikoyasiga ko’ra **noto’g’ri** fikrni toping.

- A) Asror va Haydar otalar ikki tuzum davrini ko’rgan insonlar edi.  
B) Asror va Haydar otalar ikki urush davrini ko’rgan insonlar edi.  
C) Hikoyada chet elga borib o’qish orzusida yurgan qahramon uchraydi.  
D) Abror otasining choyxona ochib, unda ishlab yurishidan bir umr iymanib o’tdi.

12. “Asror bobo” hikoyasida qanday voqeа **kuzatilmaydi?**

- A) Davlat to’ntarishi sodir bo’lganligi haqida ishora uchraydi.  
B) Urushdagi xiyonati tufayli o’g’lidan voz kechgan ona tasviri uchraydi.  
C) Beva ayolga uylanish holati uchraydi.  
D) Hikoya frontorti ishlariga jalb qilinish jarayonlarini o’zida gavdalantirgan.

13. “Asror bobo” hikoyasidan olingan quyidagi parchani o’qing va ajratib ko’rsatilgan gapda **qanday uslubiy ma’no ifoda etilganini** aniqlang.

Asror bobo:

- Ozibmanmi, qorayibmanmi? – dedi.  
*Haydar ota*
- [1]Yo’q, juda joyida... Mayiz bo’libsan ...  
Xo’sh, Yodgorboydan xat kelib turibdimi?

A) alam, qahr  
C) kibr, jahl

B) malomat, ta’na  
D) kinoya, kesatiq

14. “Asror bobo” hikoyasidan olingan quyidagi parcha haqida **to’g’ri** hukmni toping.

– Tag’in!.. Ammo-lekin, xo’p kaltakbop xotin bo’libsan-da! Burungi zamon bo’lsa, bironsta qovurg’angni butun qo’ymas edim!

- A) Asar qahramoni ushbu gaplar orqali sog’ligida muammosi borligini ifodalashga uringan.
- B) Asar qahramoni ushbu gaplar orqali hukumat ham shu davrga kelib xotin-qizlarning taqdiriga befarq emasligini ifodalashga uringan.
- C) Asar qahramoni ushbu gaplar orqali xotiniga alamzada bo’lib yurganligini, jahlini chiqarsa, ayab o’tirmasligini ifodalashga uringan.
- D) Asar qahramoni ushbu gaplar orqali xotining ko’ngli yarimtaligini va hasta ekanligini ochib berishga uringan.

15. Asror bobo tilidan aytilgan quyidagi parchaga diqqat qiling!

Qani ilgarigi qishloq? Hozirgacha ham yonmagan yurak bo’lsa, mana shuni eslatishing bilan alanga oladi. Alanga oldir, yondir! Shunda **farzand dog’iga qolgan gitlerchilar ko’payadi**, yaxshi bo’ladi...

Ushbu parchada ajratib ko’rsatilgan gap haqida bildirilgan to’g’ri fikrni toping.

- A) Ushbu parchada gitlerga sodiq kishilarning yo’q qilinishi lozimligi haqida gap ketgan.
- B) Ushbu parchada farzandlarini urushga yubormayotgan kishilarning ko’zini ochishi kerakligi haqida gap ketadi.
- C) Ushbu parchada farzandlarini urushga yuborgan va ulardan ayrilgan kishilarning tushkunlikka tushmasdan, qalbini alanga oldirib dushmanga qarshi harakat qilishga chorlov mazmuni kuzatiladi.
- D) Ushbu parchada barchasidan charchagan, hayotdan umidini uzgan kishilarning holatini ochib berish kuzatiladi.

16. “Asror bobo” hikoyasida uchraydigan **kampir** obraziga mos **to’g’ri** fikr(lar) ni toping.

- 1) Uyidan ko’chaga chiqmaydigan, bir ishga yaramaydigan, erining koyishlari, so’kishlariga umri davomida chidashga majbur bo’lgan obraz;
- 2) Farzand dog’i yeb bitarayotgan, yolg’iz farzandini ham urushda yo’qotgan mushtipar ona obrazi;
- 3) Eridan turli sabablar tufayli ranjisada, ammo uning dili og’rishini istamaydigan, haqiqiy urush davri o’zbek onasi timsoli;

A) 1,3              B) faqat 2              C) 2,3              D) faqat 3

17. Abdulla Qahhorning “Asror bobo” hikoyasiga oid **to’g’ri** shakllantirilgan javobni belgilang.

- A) Asarga urush kayfiyatini olib kirgan Sodiqjonning urushda aytgan gapi butun jangchilar orasida maqol bo’lib ketadi.
- B) Og’abekovning o’limiga sabab, uning ko’ngilchanligi edi, qurolsiz, yarador bo’lgan nemis jangchisini o’ldirishni paysalga solganligi o’zini halok etadi.
- C) Asror bobo urushda, urushdagina emas, front ortida ham ko’ngilni fahm-farosat bilan yo’lga solish kerakligini, g’aflatda qolib ketmaslik kerakligini ta’kidlab o’tadi.
- D) Kampir Sodiqjondan begunoh uch kishini o’ldirganini eshitib qattiq xafa bo’ladi.

18. Kampir:

– Axir, seni bola-chaqangdan ayirgan-ku, **shu qurib ketgurlar edi**, uni otaman degan kishining nega qo’lini tutasan!

Ushbu kampir tilidan aytilgan parchada **ajratib ko’rsatilgan gap** orqali kim(lar) nazarda tutilgan?

- A) nemis jangchilar
- B) bosmachilar to’dasi
- C) sovet zabitlari
- D) oq aminlar

19. “Asror bobo” hikoyasida Asror bobo nima **sababdan urushdan qaytgan askarlar** bilan suhbat qilishni xohlar edi?

- A) Urushdan qaytgan askarlar suhbat o’g’li Yodgor haqida biror yangilik eshitamanmi degan maqsadda suhbat qilardi.
- B) Urushdan qaytgan askarlar ko’rinishida o’g’lini ko’rardi va uning ruhini his qilardi, shu sababli ular bilan suhbat qilardi.
- C) Urushdan qaytgan askarlardan urushdagi voqealarni so’rardi va ularni tinglarkan urush orti insonlarni oyoqlantirmoqchi bo’ladi.
- D) Asror bobo hikoya tinglashni yoqtirar edi, urushdan qaytgan askarlarning esa urush haqidagi hikoyalari qiziqarli edi, shu sababli ular bilan suhbat qilardi.

20. Asror bobo:

*Hozirgi vaqtida anchayin bir traktorning g’ildiragi* tomorqada zang bosib yotsa ham odamning g’ashi keladi.  
Ushbu parchada **ajratib ko’rsatilgan bo’lak** orqali kimlar nazarda tutilmoqda?

- A) urushga bormagan yigitlar
- B) qishloqdagagi keksa kishilar
- C) askarlarning xotinlari
- D) urushdan qaytgan yarador askarlar

21. “Asror bobo” hikoyasiga oid **to’g’ri bo’lмаган** javobni belgilang.

- A) Asrorqulning o’g’lidan kelgan qoraxatni yashirishdan maqsadi bu xabar xotiniga og’ir botmasligi uchun edi.
- B) Haydar ota Asrorqulning uyiga kelganda bir mehmon o’zini qayerga qo’yishni bilmasdan, qizargan holda o’tirar edi, chunki noxush xabar olib kelgan edi.
- C) Haydar ota Asrorqulga o’g’lidan qora xat kelganini qanday yetkazishni bilmay turadi, ammo uning kampiri o’zida kuch ko’rsatadi.
- D) Haydar ota kampirning ko’ngli biroz yorishsin deb uni o’z uyiga, xotinining oldida jo’natadi.

22. “Asror bobo” hikoyasi mazmuniga oid **to’g’ri** fikrni aniqlang.

- A) Asarda qatag’on siyosatining fojiaviy oqibatlari ko’rsatilgan.
- B) Asarda jadidchilik harakatining Turkistonda yoyilishi aks ettirilgan.
- C) Asarda II jahon urushi davrida xalqimizning ko’rsatgan qahramonliklari tasvirlangan.
- D) Asarda xalqimizning moddiy qashshoqligi tasviri berilgan.

1. Mirkarim Osimning “Jayhun ustida bulutlar” qissasi qahramoni **Abu Nasr ibn Iroq** haqidagi **to’g’ri bo’lmagan** ma’lumotni belgilang.

- 1) *Olim-u fozillar bilan suhbatlashishni emas, balki yuksak martabali amaldorlar, a’yonlar bilan suhbat qurishni yoqtiradigan obraz;*  
2) *Noyob kitoblarni yig’ishga qiziqar va ular bilan kitobxonasini to’ldirishga urinadigan obraz;*  
3) *Ma’mun ibn Ma’mun katta qo’shin to’plab bostirib kelayotganini eshitgach, o’z shogirdini yoniga olib Ray shahriga jo’nagan obraz.*

A) 1,2      B) faqat 2      C) 1,3      D) 2,3

2. “Jayhun ustida bulutlar” qissasi qahramoni Abu Nasrning quyidagi gapiga e’tibor qaratting:

– *Aqli bo’lsang ham, bolaligingga borasan-da!  
Sendan haq olib boyib ketarmidim! Tekingga o’qitib seni voyaga yetkazaman, ust boshingni qarab turaman. Yaxshi o’qisang – shuning o’zi kifoya.*  
Ushbu parcha mazmunidan kelib chiqib, **mos** javobni belgilang.

A) *Abu Nasrning ilm-fan ahliga saxovatligi, har qanday bilimni insonlarni e’tibordan chetda qoldirmasligi ko’rsatilgan.*

B) *Abu Nasrning hukmdor buyrug’ini so’ssiz bajarishi, yetimlarga homiylik qilishi tasvirlangan.*  
C) *Abu Nasr yosh Muhammaddan keljakda yuqori davlat mansabidagi kishi chiqishini bilar, shuning uchun unga yoshligidan mehribonlik ko’rsatmoqda edi.*

D) *Yosh Muhammadning ilmga bo’lgan qiziqishini ko’rga hukmdor Abu Nasrga uni o’qitib tarbiyalashni buyuradi, shundan so’ng bu ishni amalga oshiradi.*

3. “Jayhun ustida bulutlar” qissasi mazmuniga oid **xato bo’lmagan** fikrni aniqlang.

A) *Asar qahramoni bo’lgan Abu Nasr Beruniyning kambag’al, chor-nochor ahvoldaligini ko’rib unga yordam qo’lini chozmoqchi bo’ladi.*

B) *Asar qahramoni bo’lgan Beruniyning onasi o’glini o’qitmoqchi bo’ladi, ammo kambag’alligi sabab Abu Nasrga ta’lim berishiga iltimos qiladi.*

C) *Asar qahramoni bo’lgan Abu Nasr Beruniyning aql-zakovatiga qoyil qoladi va uning butun kafolatini (kiyim, ovqat, ta’lim olish) o’z zimmasiga oladi.*

D) *Asar qahramoni bo’lgan Abu Nasr Beruniyning saksavul terib yurganini ko’rib, bu tenggi bolalar ishslashdan ko’ra hozir ta’lim olmog’i lozim deb o’ylaydi va ta’lim bera boshlaydi.*

4. “Jayhun ustida bulutlar” qissasi mazmuniga oid **to’g’ri shakllantirilgan** javobni belgilang.

A) *Yosh Muhammad turli o’simliklarning xususiyatlarini yaxshi bilar, ulardan dori yasab, sotib kun ko’rar edi.*

B) *Abu Nasr Beruniyning dorivor giyohlarga bo’lgan qiziqishini ko’rib, unga o’zi bu narsallarni o’rgatmoqchi bo’ladi.*

C) *Muhammadning arab tili ustozi Abu Sahl uning arab tilini zehniga qoyil qoladi, ammo arab adabiyotida oqsayotganidan shikoyat qiladi.*

D) *Beruniy yoshiligan dorivor o’simliklar nomini bilar, chunki tirikchilik qilish uchun shu kabi giyohlarni cho’l-u biyobonlardan terib kelar edi.*

5. Abu Nasr:

– Bas qil! – dedi Abu Nasr uning so’zini og’zidan olib. – Shakkoklik... Muqaddas kitoblarni ilmi mantiqni o’rganmasdan burun o’qimoq kerak.

Ushbu parchada Beruniyning savolidan so’ng Abu Nasr **nima sababdan** qat’iy ushbu javobni beradi?

A) Chunki diniy kitobdagi ma’lumotlarni xato deyish yaxshi emas edi, uning biror halokatga yo’liqishidan qo’rqib unga e’tiroz bildiradi.

B) Chunki ustozi bilmagan narsani shogirdi aytgandan so’ng uning alami keladi va uning og’zini yopib tashlaydi.

C) Chunki Abu Nasr Beruniyning qanaqadir savollar bilan emas, bilim olish bilan shug’illanishini xohlaydi.

D) Chunki Abu Nasr xato aytilgan fikrlarni yoqtirmas edi, Beruniy aytgan gaplari haqiqat bo’lmagani uchun shu kabi javob qaytaradi.

6. “Jayhun ustida bulutlar” qissasida Xorazmshoh Abu Abdullo **nima sababdan** Abu Alini asir olish uchun odam yo’llaydi?

A) Chunki Abu Ali hukmdor Ma’mun haqida muhim ma’lumotlarni bilar edi

B) Chunki undan xusumati bor edi, ya’ni u zabit etmoqchi bo’lgan shaharni egallab olgan edi.

C) Chunki Abu Ali xiyonatkor vazir edi. Abu Abdulloning buyrug’ini bajarmasdan sotqinlikka o’tib ketadi.

D) Chunki uning karvonidan qimmatbaho boyliklar ko’p edi. Agar Abu Alini qo’lga olsa, boyliklarga ega bo’lishini o’yladi.

7. Asar qahramoni Abu Nasr shogirdiga: – Bu yerdan ketish kerak. Anjomlarining ni yig’ishtirib, yo’l hozirligini ko’r. Tongda Abu Vafoning karvoni Ray shahriga ketar ekan, – dedi.

**Nima sababdan** Abu Nasr Beruniyning shahardan ketishini xohlaydi?

A) Shaharda olimlarga nisbatanadolatsizlik kuchayib ketganligi sababli;

B) Shaharga Gurganj amirining bosqini sababli;

C) Chunki Ray shahri ilm olish uchun eng yaxshi joy edi.

D) O’zidan bilim jihatdan ustun bo’lgan shogirini oldida olib qolmaslik uchun;

8. “Jayhun ustida bulutlar” qissasi mazmuniga **mos bo’lgan** javob variantini belgilang.

A) Abu Abdullo keng mushohadali kishi edi, bir ish boshlashdan oldin shaxsiy hissiyotga berilmay, vazirlar maslahatiga amal qilardi.

B) Abu Nasr biror ish qilishda shoshmasdan, yaxshilab o’ylab qaror qabul qilishni xohlaydi. Shu jihatdan uning keng mushohadali shaxs ekanligi namoyon bo’ladi.

C) Gurganch hokimining Xorazm yutiga bostirib kelishidan asosiy sabab o’z vakillarining boshqalar qo’lida xor qoldirmasligi edi.

D) Abu Nasrning shoshma shosharligi sababli ikki yurt o’rtasida urush kelib chiqadi, bunda o’zini gunohkor bilib shahardan ketishga rozi bo’lmaydi.

9. “Jayhun ustida bulutlar” qissasi qahramoni bo’lgan Muhammad (Beruniy) haqida **to’g’ri** bandlarni belgilang.

1) Turli giyohlar va ularning xosiyatlarini bilishga qiziqqani uchun Beruniy nomini oladi.

2) Ustozining har bir gapini hurmat qiladigan, uning maslahatlariga amal qiladigan yaxshi shogird;

3) Yurtga bostirib kelayotgan bosqinchilarga qarshi kurashmoqchi bo’lgan, ammo ustozi sababli buni tashlab boshqa shaharga jo’nashga majbur bo’lgan qahramon;

A) 1,2

B) faqat 2

C) 2,3

D) 1,3

10. Saroybon va Beruniy o’rtasidagi suhbatga e’tibor bering:

– Gurganchga birinchi keldingmi? Nechun bir kecha yotib ketmoqchisan? – deb so’radi.  
– Yoshligimda shahringizga kelgan edim. Endi shu yerda qolsam kerak. Obro’li bir odamga mehmon bo’lib kelyapman. Yuvinmay-taranmay ul kishi huzuriga bormoqqa iymandim.  
– To’g’ri, obro’li kishilar oldiga ozoda bo’lib borgan yaxshi. Qani, yuring, – dedi u negadir bu gal sizlab. Ushbu parchada saroybonning xarakterida **qanday xususiyat mavjudligini** ko’rishimiz mumkin?

- A) mensimaslik, xushomad      B) alam, ikkilanish  
C) e’tiroz, buyurish      D) hurmatsizlik, kamtar

11. Abu Nasr:

– Izzat-nasfi kuchli podshoning qahridan xudoning o’zi asrasin, - chuqur nafas olib. – Ul to’g’rida men yaxshi gaplar eshitgan edim. Dovulning tovushi uzoqdan yoqimli eshitiladir, deb bekorga aytmagانلار. Haytovur, senga ziyon tegmabdir.  
Abu Nasr va Beruniy o’rtasidagi ushbu suhbatda Qobus haqida Beruniy aytgan gapdan keyin Abu Nasr ushbu gaplarni keltirgan. Beruniy Qobus haqida **SALBIY** fikrni aytgan edi?

- A) uddaburon, siyosatli hukmdor, shu bilan birga shoir va olimligi aytgandan so’ng.  
B) O’z yurtida xalqqa ayovsiz soliq va jarimalarni solishini aytadi.  
C) Olim va shoirlarga qarshi qatag’on siyosatini yuritganini aytadi.  
D) kechirimlilik undan yiroqligi, kichik xatosi uchun ham amaldor va fuqarolarni o’ldirib yuborishini aytadi.

12. “Jayhun ustida bulutlar” qissasi mazmuniga **mos bo’lmagan** javob variantini belgilang.

- A) Nodon din peshvolari tanqid qilingan.  
B) Taxt uchun sarkardalar va a’yonlar tortishuvular tasviri keltirilgan.  
C) Olim-u ulamolarga homiylik qiladan insonlar tasviri mavjud.  
D) Yuqori lavozimdagи sarkardalarning oliyjanobligi, moddiy narsalar ular uchun ikkinchi turishi tasvirlangan.

13. Xo’ja Hasan Maymandiyga **xos bo’lmagan** sifatni toping.

- A) Hukmdori bilan bamaslahat ish qilishni odatga aylantirgan vazir.  
B) Sixni ham, kabobni ham kuydirmaslik tarafdori bo’lgan obraz  
C) Uzoqni ko’zlab ish ko’radigan dono. ammo ayyor odam  
D) Shia mazhabidagilaming himoyasi uchun jonini ham ayamaydi.

14. “Jayhun ustida bulutlar” qissasi mazmuniga oid **to’g’ri shakllantirilgan** javobni belgilang.

- A) Abu Rayhon Beruniy onasi tomonidan otasiz katta qilingan.  
B) Abu Nasr Mansur ibn Iroq Beruniyni shogirdlikka olish evaziga haftasiga bir eshak o’tin oladigan bo’ldi.  
C) Xorazmliklar jangovar xalq bo’lsa-da, yurt himoyasi uchun hech qachon birlashgan emas.  
D) Beruniy yigirma ikki yoshida musofirchilik azoblarini his etib ustozি yoniga, Buxoroga qaytib keladi.

15. “Jayhun ustida bulutlar” qissasi mazmuniga oid **to’g’ri shakllantirilgan** javobni belgilang.

- A) Mahmud G’aznaviy kamtar va sipo, qolaversa, olimsifat podshoh bo’lgan.  
B) Yovuz podshoh Ma’mun binni Muhammaddin maqtashga arzigelik vorislar qolgan.  
C) Abu Abdullo amakivachchasining yuzidan o’tolmay ilm ahliga muruvvat ko’rsatadigan tojdar edi.  
D) Abul Abbas xotinining so’zi bilan ish qilgani bois tashqi dushmanaga mag’lub bo’ldi.



